

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TASHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI**

E‘ZOZA KARIMOVA

O‘ZBEK TOLERANTLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan
5140900 - Kasbiy ta`lim bakalavriat ta`lim yo`nalishi
talabalari uchun o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti
Toshkent - 2006**

E'zoza Karimova. O'zbek tolerantligining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti 2006, 64 b.

Sosiologiya fanlari nomzodi E.G. Karimovaning "O'zbek tolerantligi spesifikasi" deb nomlangan ushbu qo'llanmasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi muvofiqlashtirish komissiyasining 2005 yil 25 maydagi yig'ilishi Qarori (3-son bayonnomasi) bilan nashr ettirishga ruxsat berilgan.

Qo'llanmadan "Sosiologiya", "Ruhshunoslik", "Ma'naviyat asoslari" fanlarini o'qitishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashlari faoliyatida, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-ommaviy ishlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrirlar:

NARZULLA JO'RAEV,
siyosiy fanlar doktori
MANSUR BEKMURODOV,
sosiologiya fanlari doktori

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

MUQADDIMA

O'zbekiston o'z oldiga huquqiy, demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni oliy maqsad qilib qo'ygan. Unga erishishning yagona yo'li demokratiyani ehuqurlashtirishdir. Har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, demokratiyaga o'ziga xos yondashish usuli bor. Shu ma'noda, Prezident I.A.Karimov: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni sharada demokratik jarayonlar uzvty ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiv o'zgarishlar yasashga urinishlar g'ovat noxush, hatto, fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqaivotning ibtidoiv va vovvovi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bundav yo'l bizga aslo to'g'ri kelmavdi"¹, deganida demokratiyani ioriv etishning umuminsomiv tamovillariga mustahkam tavangan holda vurtimizda o'zbekona vondashuvlardan ham keng foydalanish, mavjud imkonivatlardan kelib chiqish zaruratini kun tartibiga qo'vadi.

Makrodunyoda jadal ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari, madaniy ommalashuvlar, xalqaro ta'lim tizimlarining standartlashuvi milliy madaniyatning o'ziga xosligiga, uning betakrorligiga, ichki yaxlitligiga raxna solishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, xalqimizning uzoq tarixiy-madaniy tajribasida bunday xurujlar doim bo'lib kelgan. O'zga millatlarning qadriyatları shuningdek, jadal ijtimoiy-siyosiy, texnologik omillarning ta'siriga qaramasdan xalqimizning qator fazilatları, xususan, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, sabrlik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik singari milliy xislatlarimiz o'z yashovchanligini saqlab qolmoqda. Xalqimizning ulug' vakillari bu xislatlarni, ya'ni ma'naviy o'zlikni himoya qila bilish, vatan hamda kelajak oldida burch va ma'suliyatni xis qilish imkoniyati qanchalik kuchli bo'lsa, umumjahon jarayonlari ijtimoiy taraqqiyot ko'lamlaridan qat'iy nazar milliy bir butunlik saqlanishiga ishonganlar.

Dunyo hamjamiyatining hozirgi bosqichida 1995 yil 16 noyabrda Parij shahrida YUNESKO Bosh Konferensiyasining yigirma birinchi sessiyasida qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari Deklarasiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda shunday deyilgan: "Tolerantlik – bizning

¹Karimov I.A. Vatan sajdogo'x kabiv muqaddasdir. 3-jild, - T.: Őzbekiston, 1996. – B. 8-9.

dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik – turli–tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj bo'lib, tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir”².

Darhaqiqat, bugungi dunyoda bag'rikenglik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biz iqtisodning globallashuvi va mobillashuvi, kommunikasiyalarning tez rivojlanishi, integrasiya va o'zaro bog'liqlik, keng miqyosli migrasiya va aholining ko'chib yurishi, shaharlashuv hamda ijtimoiy tuzilmalarning yangidan o'zgarishi asrida yashamoqdamiz. Har bir mintaqa xilma-xil bo'lib, toqatsizlik va nizolarni kuchaytirish dunyoning barcha hududlariga birdek tahdid soladi. Bunday tahdiddan esa qochib bo'lmaydi, chunki u umumbashariy xususiyatga egadir. Demak, tolerantlik dunyo taraqqiyotida ham, mahalliy va mintaqaviy makonda ham birday dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yalpi yangilanishlar jarayonini ikki uzviy o'zaro bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirishga kirishdi. Birinchisi, mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida, xalq xarakteri va mentalitetida rejaviy asoslarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar majmuidan iborat bo'lsa, ikkinchi yo'nalish, halqaro ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, kolliziya muhitidan murosas, hamkorlik munosabatlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosabatlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi halqaro tashkilot tuzilmalariga asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.³

Shulardan kelib chiqqan holda, biz tolerantlikning falsafiy mohiyatini ochib berish, tolerantlikni ifodalovchi fazilatlarini o'rganish, ilmiy-nazariy mushohada qilish bilan birga respublikamiz mustaqilligi sharoitida o'zbek xalqi tolerantligining umuminsoniy mohiyati,

²Бағрикенглик тамаойлари Декларацияси. Париж. 1995 йил 16 ноябр. – Б. 4.

³Жўраев Н. Ўзбекистонда янгилашнилар концепциясининг яратилиши, эволюцияси ва амалиётда қўлланиши. Сийсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун илмий маъруза тарзида ёзилган диссертация автореферати. -Т.: 2001. – Б. 4.

insonparvar salohiyatining yuzaga chiqishi jarayonlarini tahlil etish, ajdodlarimiz ijtimoiy-etnik o'ziga xosligini ifodalab kelgan mazkur fazilatni vorisiylik an'anasi sifatida yoshlar ongi, idrokiga chuqurroq singdirish va tolerantlikni amaliy ya'ni ijtimoiy tajribada kengroq qo'llash imkomiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

Ijtimoiy ong mazmunining tobora insoniy mohiyat kasb eta borishi, shaxs haq-huquqlari barqarorlashayotganligi, halqaro makonda mehr-shafqat, bag'rikenglik, odamiylikka doir umumplanetar maylning kuchayishi jamiyat, jamoa va shaxs ma'naviyatida yangilanish jarayonlarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liqdir. XX asr so'ngiga kelib insoniyat o'z qazosi ham, o'z davosi ham o'z qo'lida, real sa'y-harakatlarida, tafakkur tarzida ekinligini to'la anglab yetdi. Dunyo o'z-o'zini asrash instinktini ishga solish taraddudini ko'rmoqda.

Qo'llanmada insoniyatni asrash, davlatlararo hamjihatlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, barqaror tinchlikni mustahkamlash va saqlab qolishda tolerantlikning tutgan o'rni, bugungi kunda tolerantlik omillarini jamiyatga tadbiq etish va yoshlar ongiga chuqur singdirish muhim vazifalardan biri ekanligi asoslashga harakat qilingan.

Ushbu qo'llanmadan "Sosiologiya", "Ruhshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Psixologiya", "Pedagogika" fanlarini o'zlashtirishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashlari faoliyatida, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-ommaviy ishlarni olib borishda foydalanish mumkin.

TOLERANTLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Jamiyat tarixi - mohiyat e'tiboriga, ko'ra kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarixidan iborat. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrida tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum esa jamiyatni tashkil qilgan shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarni shakllantiradi va idora qiladi. Shu sababli, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, maqsadi, manfaatlari, tuzum tomonidan unga berilgan erkinlik darajalari kabi masalalar o'ziga xos ijtimoiy muammolarni tashkil etadi. Ana shunday muammolardan biri tolerantlik muammosidir.

Tolerantlik muammolari shundan dalolat beradiki, bu tushunchaning talqimi keng qamrovli bo'lib, u medicina, ekologiya, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jabhalarni o'z ichiga oladi. Har bir talqin o'z navbatida yetarli asosga egadir.

Bugungi kunda jamiyatimizda vujudga kelgan sharoitda tolerantlik tushunchasi, birinchi navbatda demokratik jarayonning poydevori sifatida olib qaraladi. Bunda bir qancha murakkab nazariy savollar tug'iladi. Ularning eng muhimi quyidagilardir: demokratik dunyoqarash mohiyatining ifodasi sifatida olib qaralganda, tolerantlik – hamma narsaga nisbatan sabr-toqatli va bag'rikeng bo'lishni nazarda tutadimi? Zero, har narsaga toqat qilish, demokratiyaning qulashiga olib kelishi mumkin. Agar tolerantlik ma'lum ma'noda sabrsizlikni o'rinli deb topsa, unda u o'z-o'zini inkor etayotgan bo'lmaydimi? Bu savolga to'liq javob topish uchun qilingan urinishlarning barchasi mantiqiy, qoniqarli yechimi topilishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Tolerantlilik (lotincha tolerantia – sabrlilik, toqatlilik) – o'zga hayot tarzi, nuqtai nazar, g'oyalar va e'tiqodlarga toqatlilik, bag'rikenglikdir.⁴

Rossiyada nashr etilgan sosiologik lug'atda esa, tolerantlikka quyidagicha ta'rif beriladi: a) Yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, hissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv; b) noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan hodisalarga bag'rikenglik bilan yondashuv; v) noqulay, nomaqbul hissiy omillar ta'siriga ham chidam bilan yondashuv.⁵

“Mening fikrimcha, biz erkin va ongli mavjudot bo'lganligimiz sababli – aybni atrofdagilarga ag'darishdek bid`atlardan holi bo'lishimiz kerak. Alauxusus, bu tolerantlikka aloqador bo'lib, ushbu toqathilikni

⁴Марк Ноттурно. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие «закрытых обществ» //Ижтимоий фикр. 1998. N 2. – Б. 89.

⁵Российская социологическая энциклопедия. – М.: Наука, 1998. – С.278.

uzoq muddat erkinlikka to'siq bo'lib kelgan diniy, etnik va irqiy xurofotlarni yengib o'tish yo'lidagi urinishlarimiz sifatida tavsiflash mumkin".⁶

"Tolerantlik — bu yoqmaydigan, xatto yovuz deb hisoblanuvchi narsalarga toqat bilan munosabatda bo'lishdir". Munosabatning bunday turini ma'rifat faylasuflari bo'lmish Volter va Lokk diniy ta'qiblarga qarshi chora sifatida taklif etishgan va bu XVIII asrdan boshlab axloqiy ideal sifatida qadrlangan. "Har qanday ta'qiblar nohaq ish bo'lsa, demak tolerantlik muayyan oqilona va adolatli ishdir. Biroq, bularning bari unchalik oddiy emas. Tolerantlik foydasiga uning barcha dalillarini hisobga oladigan bo'lsak ham, Lokkning fikricha, erkin jamiyat uning alohida a'zolari tomonidan bo'linadigan alohida diniy e'tiqodlarga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Biroq, bu bizning qandaydir darajada xudoga ishonishimizga bog'liq (chunonchi, xudoga ishonmaydiganlar buzilmaydigan qasam ichishlari mumkin emas). Siz tomoningizdan ishonchingizga kiritilganidan ko'ra, sizni otib tashlashni istovchi kishi bilan to'laqonli bahs-munozarani olib borish mumkin emas. Boshqacha aytganda, oqilona munosabatlarning o'z chegaralari bor. Biroq, xuddi shuning o'zini tolerantlikka nisbatan aytish adolatlidir. Tegishli tayyorgarliksiz barcha toqatsizlarga tolerantlik tamoyili munosabatida bo'lish joiz emas; agarda siz shunda ham bunday harakatni amalga oshiradigan bo'lsangiz, siz nafaqat o'zingizni, balki tolerantlik munosabatini ham barbod qilasiz".⁷

Ma'lum bo'lishicha, tolerantlik tushunchasining adekvat (mos) izohini anglash uchun, uning konkret kontekstdagi ma'nosiga e'tibor qaratish kerak. Dinlararo munosabatlar tizimida tolerantlik bir ma'no kasb etsa, g'oyaviy frontda o'zgacha ma'noni anglatadi. Ilm-fan sohasida tolerantlik muammosi e'tiborga molik masaladir. Turli qarashlar va fikr-mulohazalarning aralashib ketishi fojeaviy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aytaylik, dinlar va ideologiyalar bir xil ma'noli yechimga ega bo'lmagan savollarga o'ziga xos javob topa olsa, ilm-fanda bir savolga ikkita, bir-biriga zid javob topish noma'qul hodisadir.

Turli xil mentalitet hamda, turli shakldagi tolerantlikka adekvat yechim-munosabat topilgan taqdirda, jamiyatda shunday ijtimoiy va siyosiy munosabatlar shakllanadiki, ular demokratiya, barqarorlik va

⁶Марк Ноттурно. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие «закрытых обществ» //Ижтимоий фикр. 1998. N 2. — Б. 81.

⁷Марк Ноттурно. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие «закрытых обществ». //Ижтимоий фикр. 1998. N 2. — Б. 82.

farovon hayot garovi bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy va madaniy xilma-xillikka nisbatan individual hamda, ijtimoiy munosabat shakli sifatida, shuningdek, o'zga fikr, e'tiqod va yurish-turish uslubiga nisbatan sabr-toqatlilik shakli sifatida tolerantlikka - madaniyatlilik, siyosiy yetuklikning asosiy alomati deb qarashimiz mumkin.

Omma ongida shunday tushunchalar mavjudki, ularning haqqoniyligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Masalan, "ozodlik" inson hayotida mavjud bo'lgan chin ma'nodagi haqiqatdir: hech kim qul bo'lishni istamaydi, hamma mustaqil bo'lishga intiladi. Biroq, ozodlik tushunchasi aniqlashtirilganda turli savol va gumonlar paydo bo'ladi. Misol uchun, qaysi birimiz qotilni ozod qilish tarafdorimiz? Aksariyat o'ylashimizcha, barchamiz bunday ozodlikka qarshimiz. "Tolerantlik" ham o'z mohiyatiga ko'ra, "ozodlik" kabi tushunchalar sirasidandir. Darhaqiqat, shaxsiy xususiyatimiz, tabiiy va ijtimoiy ko'nikmalarimizga nisbatan sabrsizlikka hech qaysimiz chidab turolmasak kerak? Shu ma'noda olib qaralganda, tolerantlik har jihatdan o'rinli; biroq jamoat transportida tartib buzayotgan bezori yoki infeksiyalar tashuvchisi – bolejga toqat qilish ancha mushkul vazifa. Boshqa kishilarga nisbatan tolerant bo'lish shunday holda yaxshiki, qachonki bunday tolerantlik bizning erkinligimizga xavf tug'dirmasa va biz o'zimizga nisbatan munosabatni ham tolerant tarzda bo'lishini istasak. Shunday holatda tushuniladigan tolerantlik, bu – "salbiy erkinlik"ning yoki majburlash erkinligining idealidir va u faqat bir narsani: biz bir-birimizni tinch qo'yishimizni talab etadi. Biz salbiy erkinlikni qoralamoqchi yoki u umuman erkinlikning muhim yo'nalishi emas, deya ta'kidlamogchi emasmiz. Aksincha, toki jahonda o'z diniy e'tiqodlari, etnik yoki irqiy tomonlari, yoxud faqat ular "boshqa" bo'lganliklari uchun ta'qib qilinadigan kishilar bor ekan, tolerantlik biz uchun ustuvor bo'lishi kerak.

Tolerantlik kompromisga (kelishuv) kelish va mojarolarni hal qilishning muhim shartidir. Sabrsizlik insoniyatni jahannamga yetaklaydi. Biroq, tolerantlikning tabiati qanday?

Tarixdan ma'lumki, tolerantlik turli xil dunyoqarashlar asnosida yuzaga kelgan, hamda, diniy urushlar uchun zamin yaratayotgan mojarolarga ma'naviy (jismoniy emas) aks ta'sir tarzida vujudga keladi.

Davlat miqyosidagi tolerantlik har qanday ijtimoiy hodisa va hattiharakatga nisbatan sabr-toqatli bo'lishni qonuniy deb topmaydi. Tolerantlikka davlat miqyosida qonuniy tus berilishi, demokratik boshqaruv shaklining o'rnatilishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Bugungi kunda kuchli ehtiros bilan targ'ib qilinayotgan tolerantlik – o'zga xalq va dinga mansub kishilarga nisbatan hamdardlik bildirish yoki ma'lum davlatda inson huquqlarini poymol etish hollarini aniqlash bilan chegaralanib qolmoqda. Bunday empirik yondashuv tolerantlikning diskriminasiya tushunchasi bilan aralashib ketishiga olib keladi. Tolerantlik ijtimoiy hayotning ijobiy yaxlit hodisasi sifatida qaralishni talab etadi. Ana shu yaxlitlikni tushunish orqali, tom ma'nodagi tolerantlikka erishish mumkindir.

Tolerantlik – bu na tuturuqsizlik va na ijtimoiy eklektikadir: tolerantlik – bu xilma-xillik. o'zgacha fazilat, hamda, xususiyatlarni bir butun borliqning airmas, muhim qismi sifatida chuqur anglashdir. Sabrsizlik – bu ijtimoiy hayot haqiqatini nazar-pisand qilmaslikdir. Diskriminasiya – bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy faoliyatni, huquqlarni cheklash siyosatiga moyil xususiyatlarni suniy ravishda yoyish, begona subyektlarni siqib chiqarish, taxqirlashdir. Diskriminasiya subyektiv xohish-istakka asoslangan bo'lib, unda qaror topgan ahloqiy qadriyatlar tizimida imtiyozlar ma'lum subyektning ixtiyorida bo'ladi.⁸

Tolerantlikni namoyish etishning o'z mexanizmi mavjud. Har bir fuqaro o'zga subyekt izzat-hurmatini joyiga qo'yish orqali shaxsiy qadr-qimmatini, mavqegini aniqlaydi va shu orqali siyosiy madaniyatini belgilaydi.

Universal tartib-qoida va tamoyillarni o'zlashtirgan hamda ularni adolatli deb tan olgan fuqarolar soni qanchalik ortsa va bu tamoyillar o'zaro faoliyatda o'z aksini topsa, omma ongida siyosiy madaniyat tushunchasi shunchalik tez qaror topadi va diskriminasiya o'z-o'zidan barham topadi.

Ijtimoiy tanglik sharoitida individ o'z mavqeining mezonlaridan bexabardir. Bu muammoning axloqiy tomoni ham mavjud: ijtimoiy mavqe, obro'-e'tibor oilada o'qitilmaydi, ta'lim tizimida ham shakllantirilmaydi. Natijada, fuqaro o'z tabiiy va ijtimoiy tafovutidan kelib chiqqan holda xulosa qiladi va shunga qarab ish ko'radi. Bir-birini "tabiat mahsuli" sifatida qabul qiladigan insonlar hech qachon o'zlarining mazmun-mohiyatini "fahmlamaydilar". Tabiiyki, bu insonlar oldida tolerantlik muammosi ko'ndalang turmaydi. Bu muammo individ, shaxsiy universal tabiatini "payqab qolgan" taqdirdagina ko'tariladi.⁹

Sosiumda qaysi ijtimoiy ong dominantlik qilishiga qarab,

⁸Скворцов Л.В. Абсолютная истина и толерантность. Человек: образ и сущность. –М.: Акад.наук, 1998. – С. 11.

⁹O'sha manba. – B. 12.

tolerantlikning har xil tiplari shakllanadi. Etnik, sosial va madaniy tarkibi, kelib chiqishi bir xil bo'lmagan ixtiyoriy jamiyat, o'z barqarorligini ta'minlash uchun tolerantlikka muhtojdir. Tolerantlikning samaradorligi esa, undagi hukmron mifologik, diniy va ilmiy-ommaviy ong bilan qay darajada mos kelishiga bog'liq.

Daslabki bosqichda mifologik ong va falsafa hamohang yangraydi. Ushbu holatni yashirin tolerantlik deyish mumkin. Biroq, u mohiyatan anglanmagan. Jamiyat falsafiy fikr spesifikasiga sabr-toqatli munosabatda bo'ladi, chunki bu fikr hali mifologik ong tasavvurlarining qulashiga olib kelganicha yo'q. Antik tolerantlikning qulashiga olib kelgan omillardan biri jamoaning ma'naviy va ijtimoiy birligining yemirilish jarayonini oldini olish, sosial xaosga yetaklovchi sabablarni bartaraf etish maqsadida qilingan sa'y-harakatlardir. Sabrsizlik va o'zgacha fikrlovchilarni ta'qib qilish an'anasi, antik jamiyatdagi tanglikni yanada og'irlashtirdi. Ko'p xudolikka asoslangan mifologik ong negizida bir xudolikka asoslangan ong shakllandi.

Vahiy orqali olingan yagona mutlaq haqiqatning o'rnatilishi tufayli, tolerantlik mantiqiy va ma'naviy jihatdan mumkin bo'lmay qoldi. Aslida mutlaqlik tushunchasining yemirilib borishi tufayli, mutlaq e'tiqod tuzilishida tolerantlikka umuman o'rin yo'q. Dinning ruhiyatida ichki kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan potensial elementlardan doimiy ravishda tozalab borish tobora murakkab vazifa bo'lib borardi. Shu tariqa dunyoviy ongga muhtojlik tug'iladi.

Dunyoviy ong tuzilishidagi tolerantlik eroziyasi, muayyan tarixiy subyektning ijtimoiy rolini mutloqlashtirish evaziga sodir bo'ladi. Dunyoviy onging mafkuraviy mahsuli sabrsizlikni keltirib chiqaradi. Dunyoviy ongdagi sabrsizlik empirik isbotga ham, mantiqiy dalilga ham muhtoj emas. Pinhoniy ommaviy intilishlar bilan hamohangligi tufayli ham, u o'z-o'zini tasdiqlash xossasiga egadir.

Dunyoviy jamiyatda tolerantlik, tub tamoyillarning o'ziga xos va o'zgarmas sohasini e'tirof etish natijasida haqiqatga aylanadi. Mazkur tamoyillar asosida, yashash sharoiti, kasbiy faoliyati, madaniy an'analarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi, etnik va milliy xususiyatlar, ijtimoiy dunyoqarashdagi farqlar qabul qilinishi mumkin. Ushbu holda tolerantlik – bir tomondan, ijtimoiy strategiya umumiylikining oqibati bo'lsa, ikkinchi tomondan, yuksak madaniyatning natijasidir. Biroq, an'anaviy jamiyat uchun, insonning o'z his-tuyg'ulari va manfaatlarining o'ziga xos va o'zgarmas tamoyillariga

¹⁰Скворцов Л.В. Абсолютная истина и толерантность. Человек: образ и сущность. –М.: Акад.наук, 1998. – Б. 17.

bo'ysundirishga qodirligi muammosi yuzaga keladi.¹⁰

Tolerantlik muammosining boshqa bir jihati inson fe'l-atvori, yurish-turishining asl mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Fan ong tubida, xayol va tasavvurlar ortida yashiringan "ikkinchi qatlam"ni ochishi mumkin. Abstrakt (mavhum) ideallardan "ozod bo'lish", inson fe'l-atvorining, shu jumladan, ruhiy buzilishlarning asl sabablarini tushunish sari yo'l sifatida idrok etiladi.

Xalqning yetuk milliy ongi, yuksak ma'naviyatga erishishi har qanday taraqqiyotning bosh maqsadlaridandir. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti bu haqiqatni har qadamda isbotlab kelmoqda.

Tolerantlik turli xalqlarda turlicha namoyon bo'ladi. Biz tolerantlikni tadqiq qilish bilan birga, o'zbek xalqi mentalitetida tolerantlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini ham o'rganishga harakat qildik.

O'zbek xalqining yuksak ma'naviyati o'ta vazminlilik, sabr-toqatlilik, insonparvarlik fazilatlarini bilan o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Qayd qilish kerakki, akademik E.Rtveladze Kushonlar davlati tarixiga to'xtalib, kushonlar davrida turli xil diniy e'tiqodlar va qavmlar vakillari tinch-totuv, ahillikda yashaganini, tolerantlik (sabr-toqatlilik) Sharqda juda qadimdan mavjudligini, Markaziy Osiyo jamiyati hozir ham o'zining bu xususiyatini asosan o'zgartirmasdan saqlab qola bilganligini va bu hodisa siyosiy raqiblar fikrlariga xayrixohlik, tushunish va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lish ildizlari va omillari haqida fikr yuritadi. Rtveladze tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlil ko'lamining teranligi va asoslilikini tan olgan holda qayd etish zarurki, tolerantlik mohiyat e'tiboriga ko'ra, faqat "moslashuvchanlik"ning o'zigina emasdir. Tolerantlik ko'p qirrali va murakkab tarkibiy tizim ifodasidir.

Ayni chog'da, tolerantlik ijtimoiy munosabatlar hosilasi sifatida jamiyatning muayyan madaniy-tarixiy holatiga muvofiq hodisadir. U jamiyat obrazining timsoli bo'lib, shu jamiyatga xos mentalitet, insoniy mehr-oqibat, hurmat, muhabbat, bag'rikenglik darajalarini o'zida aks ettiradi.

Tolerantlik ijtimoiy hodisa sifatida mehnatkashlarning o'zaro ijtimoiy muloqotlar hamda davlat va jamiyat tashkilotlariga munosabat izhor etishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday munosabatlar mazmun tabiatiga ko'ra, masalaga tazyiqiy yondashuv bo'lmasdan, biror bir muhim masalaga davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari e'tiborini jalb etish, muammoga adolat yoki tezkorlik talablari asosida ahamiyat berish xususidagi xalq tashvishidan yaralgan taklif-tavsiyalardan iboratdir. Tolerantlik hodisasining bunday shakli ijtimoiy hodisalar rivojini boshqarish jarayonlari mazmuniga e'tiroz yoki e'tirof tarzida bo'lib,

bu boradagi omma munosabati o'zining mantiqiy asoslanganligi, ixchamligi va masala yechimiga ishoraviy xususiyati bilan ajralib turadi.

Tolerantlikni fikr-qarashlarning namoyon bo'lish shakli sifatidagi ko'rinishi jamiyat hayotini ommaviy nazorat qilib borish vazifasi bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi. Ijtimoiy turmush o'zgarishlarini ommaviy nazorat qilib borish yo'li, o'z mohiyatiga ko'ra bir necha ko'rinish va shakllardan iboratdir.

Ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

a) davlat idorasi va muassasalari tartibidagi muloqotlar tizimi, o'zaro munosabatlar va majlislarda ifodalanuvchi tolerantlik; xususan hamkasblar va rahbarlarga hurmat bilan qarash - itoatlilik, andishalilik;

b) kundalik turmush tarzi, odatiy voqea va hodisalarga doir izhor etiluvchi fikrlarga munosabatlar. Masalalarga sabr-toqatlilik bilan yondashish, andishalilik bilan o'z fikrini bildirish;

v) oila muhitida, do'stlar davrasida, hamfikrlar doirasida namoyon bo'luvchi tolerantlik. Ayniqsa, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, boshqalar fe'l-atvorini yerga urmaslik xususiyatlarining namoyon bo'lishi;

g) to'y va ma'rakalarni o'tkazish asnosida yuz beradigan ijtimoiy mavzudagi fikr almashinuvlar. Masalan: mehribonlik, insof, iymon-e'tiqod, hamdardlik, tenglik, farosat, sadoqatlilik xususiyatlarining namoyon bo'lishi.

Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko'ra, tolerantlikning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan.

Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, odamlarning o'zaro birlashish ehtiyojlaridan hamda tashqi xavf-xurujlaridan birgalikda xalos bo'lish zarurati tufayli vujudga kelgan. Shuningdek, Beruniy tolerantlik, xalqlarning yashovchanligini ta'minlashda tarixiy ahamiyat kasb etganligini alohida qayd etadi.¹¹

Sharqning mashhur faylasufi Abu Nasr Forobiy tolerantlik xususida shunday yozadi: «Ba`zilar, odamlar o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar yetkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda kelishadilar deb o'ylaydilar. Bunda, ular tashqaridan

¹¹Абу Раҳйон Беруний. Ҳиндистон. Танланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Фан, 1965. – Б.19-37.

ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos hayvoniy aqidalardan biri mana shu aqidadir»¹².

Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda birgalashib yashashlari zarurligini, ana shunda o'zaro nizolar to'xtashini, hamkorlikda yashash lozimligini uqtiradi. Yoki yana: "Ba'zilar o'ylashicha, odamlar orasidagi bog'lanish robitalari shu odamlarning hulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiyligiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos, mana shu xususiyatlarga ega.

Ba'zilar o'ylashicha, odamlarning o'zaro bog'liqligi o'ylari, umuman yashash joylarining umumiyligiga asoslanadi"¹³.

Bu bilan Forobiy insonlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, sabr-toqatli bo'lishning etnoregional, geopolitik ildizlari ustida fikrlash zaruratini ta'kidlaydi.

Tolerantlik xususiyatini o'rganishda milliy an'analarga, milliy qadriyatlarga va milliy madaniyatga e'tibor berish lozim.

Xalqimiz tolerantligi O'zbekistonda milliy hamjihatlik ruhini tarkib toptirdi. Turli millat vakillari O'zbekistonni o'z vatani deb his eta boshlab, milliy madaniyati, san'ati, diniy munosabatlari va e'tiqodini namoyishi etishda keng imkoniyatlarga ega bo'ldilar. O'zbekistonda ish yuritayotgan 80 dan ortiq milliy-madaniy markazlar va ularning faoliyatlari ana shundan dalolat beradi.

Tolerantlikni ifodalovchi xususiyatlarga odamlarning hammasi ham ongli ravishda emas, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqlidan, masala mohiyatini yetarli his etmasdan turib ham amal qilaveradilar. Chunki bu ruhiy holat o'zbek xalqi xarakterida o'ziga xos inersion tabiat kasb etib qolgan.

O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz o'z tarixining o'tmishi mobaynida 4 ta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardo'shtiylik, budda, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirgan¹⁴. Turli bosqinchiliklarni (greklar, arablar, mo'g'ullar va ruslar) ko'rgan va hammasiga sabr-toqat qilgan, o'zga millat vakillarini qabul qilib, birgalikda yashagan. Bunga misol qilib O'zbekistonning mustaqillikka erishgan birinchi kunlarini olishimiz mumkin. SSSR parchalanganidan

¹²Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри».-Т.: Фан, 1993. – Б.171.

¹³Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри.-Т.: Фан, 1993. – Б.172.

¹⁴Бекмуродов М. Ўзбек менталитети хусусиятлари. //Ижтимоий фикр, 1-сон. 1998. - Б. 49.

keyin mustaqillikka erishgan ko‘plab respublikalarda boshboshdoqlik, tarqoqlik, qashshoqlik va bularning natijasida, turli to‘qnashuvlar kelib chiqdi, guruhbozlik kuchaydi. Lekin, o‘zbek xalqining sabr-toqatliligi, muammolarni bosiqlik bilan hal etish xususiyatlari va Prezident I.Karimovning bozor munosabatlariga hech qanday sakrashlarsiz, tinch yo‘l bilan, bosqichma-bosqich o‘tish tamoyillarining bajarilishi oqibatida, O‘zbekiston hozirgi kunda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, siyosiy, madaniy jihatdan o‘zini tiklab oldi.

Prezident I.A.Karimov mamlakat fuqarolari birligini ta‘minlash va turli millatlar o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishning siyosiy, ijtimoiy, hamda ma‘naviy jihatlari xususida gapirar ekan: “O‘zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma‘naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisadir. O‘zbekistonda yashayotgan xalqlar o‘ziga xosligini yo‘qotmagan holda umuminsoniy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo‘lib kelgan yagona ma‘naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi”¹⁵ - degan edi.

An‘analar hukmronligidan xalos bo‘lish, istalgan ma‘naviy yo‘nalishni tanlash imkoniyatini beradi. Individ o‘zini, turli toifadagi turmush tarzini sinab ko‘rish uchun, tajriba maydoniga aylantiradi. Xo‘sh, bunga qanday munosabatda bo‘lish kerak? Balki bu, ma‘naviy jihatdan mustaqil, noqaram individlardan iborat kelajak sivilizasiyasining belgilaridir? Yoinki bu – odatdagi normadan chekinishlarning ommaviy namoyon bo‘lishi, marginallarning doimiy tajriba va xatoliklari bo‘lishi ham mumkin. Ayni paytda, marginal fe‘l-atvorning yanada ommaviylashib borayotganligini ko‘rmasdan ilojimiz yo‘q va bu hol izoh talab etadi. Izohlardan biri, umumiy ijtimoiy va ma‘naviy qadriyatlarning inqirozga uchrashidir. Hozirgi davrda har bir individ jamiyat bilan “o‘z o‘yini”ni olib bormoqda. Individlar o‘zlarini “go‘yo” umumiy normalarga amal qilayotganday qilib ko‘rsatmoqdalar.

Jamoatchilik ongiga hayot yuza qatlamidan tashqarida mavjud bo‘lgan narsalarni qonuniy ravishda singdirish mumkinmi? Muammoning mohiyati hodisaning o‘zini yengishdan, bartaraf etishdan emas, balki, uni ochiq namoyish etish imkoniyatining mavjud yoki nomavjudligidadir. Jamiyat bunday muammolarni hal etish borasida murosasozlik yo‘lidan borishi lozim. Mazkur murosasozlik

¹⁵Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 129.

tolerantlikning zamonaviy ifodasi sifatida talqin etiladi. Endilikda tolerantlik — insonning ikki yoqlama dunyoqarashli, ikki yoqlama e'tiqodlilikidir. Bunday dunyoqarash tuzilmasida qadriyat belgilari qarama-qarshi mazmun kasb etadi.

Milliy o'zlikni anglash tolerantlikka mos bo'lib, u shaxsning boshqa millatlarga bo'lgan munosabatida, nafaqat o'z millatining merosiga va madaniy boyliklariga, balki boshqa xalqlar ma'naviy boyliklariga ham samimiy munosabatini ifoda etadi. O'zlikni anglash ayni millatga xos xususiyatlarni idrok etish, har bir xalqning ijtimoiy ozodligi timsolidir.

Milliy qadriyatlar ham tolerantlikning rivojlanishida muhim o'rinni tashkil etadi.

O'zbek milliy qadriyatlarining negizini ifodalovchi o'zbek xalqi fazilatlarini turkumi, tolerantlikni namoyon bo'lish omili hisoblanadi. Masalan, hayo, ibo, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, ota-onani ulug'lash, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, o'zgalarga harakatiga toqat kabi fazilatlar tolerantlikning namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Tolerantlik o'z millatini boshqalar tomonidan kamsitishga yo'l qo'yish emasdir. Bu tuyg'u kishilarni shunchaki olijanob qilib qo'ymaydi, balki, uning hulq-atvorini, axloqini, siyosiy va ma'naviy pokligini, burchga, o'z xalqiga va uning muqaddas narsalarga bo'lgan munosabatini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bular insonda bag'rikenglik, xotamtoylik, baynalminallik tuyg'ularini uyg'otadi. Odamshavandalik, oriyat, halollik, kamtarlik fazilatlarini kuchaytiradi. O'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi rivojlangan kishi odatda o'zgalarga xayrixoh, sezgir, mehribon bo'ladi.

Biz o'zimizga, boshqalarga hurmat bilan muomala qilayapmizmi, ularga munosabatimiz qanday, deya savol berishimiz darkor. Biz boshqa odamlarning so'zlariga e'tibor berishimiz, shunga o'zimizni majbur qilishimiz va ularni tushuna olishimiz lozim. Boshqalarga hurmat bilan qarash, ularning mavjudliklarini tan olishgina emas, balki ularga quloq solish, ular bilan muloqotga kirishish, hurmat qilish va hatto ularni yuqori baholay olish va sevish (nima uchun shunday qilmasligimiz kerak) hamdir.¹⁶

Prezidentimiz I.A.Karimov har bir ijtimoiy jarayonga tizimiy yo'nalishga ega tushuncha sifatida qaraydi. Uning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida: «6-ustuvor yo'nalish - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni,

¹⁶Федерико Майор. Келажак хотираси. — Т.: Ўзбекистон, 1996. — Б. 160.

sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat»,¹⁷ - deyiladi. Prezidentimizning voqelikka tizimiy yondashuv konsepsiyasidan kelib chiqib, tolerantlik hodisasining ijtimoiy-siyosiy namoyon bo'lish xususiyatlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- millatlararo tolerantlik;
- fuqarolararo tolerantlik;
- davlatlararo tolerantlik;
- aholi yosh qatlamlariaro tolerantlik;
- madaniyatlararo tolerantlik;
- partiyalararo tolerantlik;
- qadriyatlararo tolerantlik;
- konfessiyalararo tolerantlik;
- hududlararo tolerantlik;
- urug'-qabilalararo tolerantlik;
- jamoalararo tolerantlik.

Millatlararo tolerantlikda jamiyatdagi barcha millatlarning teng huquqlilik, tinch—totovlikda yashashlari ifodalangan bo'lsa, fuqarolararo tolerantlikda insonlarning o'zaro bir-birlariga hurmatda bo'lishlari, mehribonlikni, odamgarchilikni unutmasliklari ifodalanadi. Davlatlararo tolerantlikda esa, davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, chegaralar daxlsizligini ta'minlash, tinchlikni saqlash muammolari ifodalangan.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tolerantlikni ta'minlash omillari haqida ham to'xtalib, «Men O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish, barcha mojaro va muammolarni faqat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan hal etish tarafdori ekanini yana bir bor ma'lum qilmoqchiman»¹⁸, yoki, ijtimoiy hamkorlik jarayonlarining davlatimiz ravnaqi uchun nechog'li zarurligini ta'kidlagan holda, "O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda — dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida, integrasiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelsishiga qarshimiz"¹⁹, - deydi. Demak, yuqoridagi so'zlarni tahlil qilib,

¹⁷Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т.: Ўзбекистон, 1999. — Б. 23.

¹⁸Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т.: Ўзбекистон, 1990. — Б. 24.

¹⁹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т.: Ўзбекистон, 1997. — Б. 299.

tolerantlikni ta'minlovchi omillarni ajratib olishimiz mumkin:

- davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- halqaro hamkorlikni rivojlantirish, shunday qilib tolerantlik faqat himoya mohiyatini emas, balki peshvoz harakat mohiyatini ham o'zida ifodalaydi;
- har bir davlat, region va jamoada barqaror tinchlik va ahillik amal qilishiga erishuv.

Ijtimoiy-ruhiy tasnif talablariga ko'ra tolerantlik hodisasini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin:

Anglangan tolerantlik.

Anglanmagan tolerantlik.


Anglangan tolerantlikda jamiyatda yashayotgan kishilar o'rtasidagi o'zaro bir-birlariga hurmat, o'zaro yordam, mehr-oqibat va bir-birlariga bo'lgan qadr-qimmat ifodalanadi. Anglanmagan tolerantlik esa, ibtidoiy jamiyatda yashayotgan kishilarning o'zlarini tutishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, tabiat hodisalarini tushunmaganliklari sababli ularga toqat qilishlari anglanmagan tolerantlikni anglatadi. (Suv toshqinlari har yili kishilarning uylarini, ekinlarini yuvib ketsa ham, baribir, yana suv bo'yida, daryo yoqasida yashashga harakat qiladilar.)

Tolerantlik muammosi, insoniyatning yashash uchun kurashi bilan bog'liq muammolardan ayrim holda tadqiq etilishi mumkin emas. Inson o'zining o'zligiga muvofiq keladigan yoki qarama - qarsbi bo'lgan u yoki bu omilni ixtiyoriy ravishda qabul qilishga o'rgangan.

Tolerantlikning bugungi kundagi ontologik mazmunini borliq, tabiatning kodlari bilan insoniyatning madaniy rivojlanish kodini uyg'unlikdagi muvofiqlik sifatida tushunilishi lozim. Bu muammoning mos yechimini topmay turib, insoniy munosabatlarning tolerantligiga umid bog'lama ham bo'ladi. Halqaro hamjamiyat madaniyatlarining o'zini-o'zi saqlash sharoitlari bilan bog'liq, zamonaviy vaziyatlarni belgilab berishga qodir bo'lgan asosiy axborot markazlarining yaratilishiga ehtiyoj sezmoqda. Faqat ana shu sharoitlarni belgilashdagina, inson tomonidan yerda zarur hayotiy shart-sharoitlarni qayta tiklash uchun lozim bo'lgan, moddiy va ma'naviy resurslarning beqiyos va halokatli tarzda sarflanishini keltirib chiqaruvchi madaniyatsizlikka nisbatan aniq, muqobil deb hisoblasa bo'ladigan hayot tarzi va munosabatlarning asosiy tamoyillarini o'rnatish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, tolerantlik odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyoqlarini qondirish, uning shaxs sifatida erkinligi va huquqlarini ta'minlash kabi g'ovalar bilan sug'orilgan diniy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy va shular kabi barcha insoniy qarashlardan iborat

Y-642 1/2



progressiv dunyoqarashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tolerantlik insoniy munosabatlarning muhim xususiyat ifodasi sifatida kishilar o'rtasidagi do'stlik, mehr-muhabbat, o'zaro yordam, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik, tinchlik, osoyishtalik kabi munosabatlarni aks ettiradi. Shunga ko'ra kishilik jamiyati rivojlanishi natijasida tolerantlik ham jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tobora rivojlanib, o'zining mazmunini bovitib boradi.

XX asrda teng huquqlilik va o'zaro hurmat kabi demokratik tamoyillardan voz kechish hamda insonlar va irq tengsizligi doktrinasining keng targ'ib qilinishi oqibatida tolerantlik yemirila boshladi. Ma'lumki, bu kabi doktrinalar texnikaga oid yutuqlar va muvaffaqiyatlar bilan, shuningdek, xuddi tabiatda bo'lgani kabi jamiyatda ham ayovsiz kurashda faqat kuchli va chidamli organizmlargina g'olib chiqadilar, degan ishonch bilan yonma-yon uchrar edi.

Zamonaviy inson biz yashayotgan tabiiy muhitni vayron qilayotgan tarqqiyot sanoat hamda taraqqiyoti to'xtagan taqdirda aholini kutayotgan keskin qashshoqlashuv o'rtasida, ya'ni, ikki o't orasida qolmoqda. Inson tolerantlikni asrashga urinadi, chunki usiz bizning munosabatlarimizda insonparvarlik, odamiylik yo'qoladi.

O'ZBEK TOLERANTLIGINING SHAKLLANISH TARIXI

Jamiyatimizning turli jabhalariga demokratiya tamoyilining tobora chuqurroq singa borishi davlat boshqaruvining turli jabha va darajalarida rahbariy siyosatni amalga oshirishda demokratik tartibotlarni singdirish hamda o'zbek xalqi xususiyatlariga mustahkam tayanib ish yuritishni kun tartibiga qo'yadi.

O'zbek xalqi tolerantlik xususiyatini o'rganar ekanmiz, o'zbek xalqi etnologiyasi hamda etnografiyasiga e'tibor bermasdan ilojimiz yo'q. Chunki, o'zbek xalqining etnik tuzilishi tolerantlik xususiyatining tarkib topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'rta Osiyo va Qozog'istonda istiqomat qilgan xalqlar uzoq va murakkab etnik assimilyasiyalardan iborat tarixiy evolyusion jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ular iqtisodiy bazisi, mafkuraviy ustqurmaları, ma'naviyati, madaniy olami va hissiyotlari bilan ham o'zaro nihoyatda chirmashib ketgan o'ziga xos etnoslarning mahsulidir.

VII asrda O'rta Osiyoni bosib olgan arablar etnik jarayonga bevosita ta'sir qilmasa-da, mafkuraviy va ma'rifiy o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Oradan besh asr o'tib, yuz bergan dahshatli mo'g'ul istilosi mintaqada o'z ta'sirini o'tkazib, turkiy qavmlar hamda urug'larning ham etnik tarkibi, ham mazmuniy tizimiga jiddiy o'zgarishlar yasadi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston orqali kelgan xunlar, arablar va mo'g'ullar yurishlari mahalliy xalqlar etnik tarkibiga bir yoqlama ta'sir qilib qolmadilar, balki ular, mahalliy xalqlar bilan o'zaro ta'sirlanish jarayonlariga kirishdilar va mahalliy etnoslar bilan aralashib ketdilar.

Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan elatlar sak-massagetlar zaminida o'ziga xos madaniy-etnik belgilarini ham qoldira borganlar. I ming yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlagan xunlar, xionitlar, oqxunlar, eftalitlar, pachanaklar va boshqa turk elatlarining ko'plab kelishi, mahalliy turkiy xalqlar etnik tarkibida shimol va sharq etnosiga xos xususiyatlar kuchayishiga sabab bo'lgan.

Qadimiy ona so'g'd tuprog'idagi har xil elat va qabilalar bilan yonma-yon yashab kelgan o'zbek xalqi ham mazkur xalqlarga tub qon-qarindoshligi, tabiiyki, shubha uyg'otmaydi. Ayniqsa, o'zbeklar bilan qozoqlarning irqiy frenologik tuzilishida mongoloid belgilarning mavjudligi eng qadimgi manbalar, arxeologik topilmalar, gefentologiya ma'lumotlari, qabrlar va g'orlarda saqlangan suyaklar qoldiqlari,

toshlarda bitilgan tasvirlarda yaqqol ifodalangandir. Shu boisdan ham ayrim rus tarixshunoslari tomonidan mo'g'ullikning irqiy unsurlari XIII asr boshlaridagi Chingizxon istilosi tufayli, mahalliy aholi qiyofasida namoyon bo'la boshladi, degan nuqtai nazarlariga qo'shila olmaymiz. Movarounnahrda eng qadimgi davlatchilik asoslariga ega bo'lgan Chu vodiysi o'rnidagi davlatning xorijiy tarixshunoslari tomonidan o'zbek-ozoq davlati deyilishi ham bejiz emas. Shuningdek, qirg'izlarning ham asli qadimiy saklar egallagan Tyan-shan tog' bag'ri va etagidagi yevropoid aholi bilan aralashib, o'z ona turkiy tillarini bu yerga ko'chib kelishdan oldin shakllantirganligini tadqiqotchilar qayd qiladilar²⁰.

Ma'lumki, hech bir jamiyat boshqa el-yurtlarsiz, qo'shni jamiyatlarsiz vashay olmaydi. Shuning uchun har bir xalq, o'zini qancha mustaqil hisoblab, erkinlikka erishmasin, baribir, uning rivoji va kelajagi umuminsoniy taraqqivot, qo'mi-qo'shni elatlar rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

Jamoa kishilari o'rtasida o'zaro munosabatlar tizimidagi alohida jihatlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, bu xususda turli-tuman o'ziga xoslik va silsila yasovchi nuqtai nazarlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ularni Forobiy haqli ravishda quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Kishilar o'rtasida bag'rikenglik, sabr-bardoshlik fazilatlarini qarindoshlik, muayyan qon yaqinligi tufayli namoyon bo'ladi va bunday yaqin hamjihatlilik mustahkam turmush faoliyat hamohangligi va yakdilligini yuzaga keltiradi;

2. Kishilarning o'zaro bog'liqligi zamirida muayyan qabila-urug'larga tegishlilik yotib, anchagina katta miqdordagi kishilar guruhi o'rtasida fikr yakdilligini tashkil etishi mumkin;

3. Kishilar islom aqidalaridagi muhim talab — imondan keyin yoziluvchi, ammo imondan qadri-qimmati past bo'lmagan lafzni o'rta qo'yishib, ahd, qasam asosidagi o'zaro ittifoq negizida bir-birlari bilan bog'lanadilar. Bu bog'lanish o'zaro sabr va bag'rikenglik fazilatlariga yo'l ochadi;

4. Kishilarning o'zaro yaqin aloqalari urf-odat, an'analari, fe'l-atvor, saviyalari tengligi, didlar o'xshashligi, xarakter yaqinligi hamda tilning umumiyligi tufayli ham yuzaga keladi;

5. Kishilarni o'zaro bog'lovchi yana bir muhim vosita ularning tug'ilib o'sgan yurtlari, yashash joylari umumiylik hodisasidir. Hamyurtlik hodisasi — xavf umumiy bo'lganda uni bartaraf etish yakdilligini ta'minlashda muhim ijtimoiy ma'naviy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁰Жабборов И. Ўзбек халқи этнологияси. -Т.: Фан, 1995. — Б. 28.

O'zbek xalqining serfarzand va sertomir ekanligi uning xarakterida urug' va o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy qatlamlar uchun umumiylik jihatlari, ayniqsa, jamoaning manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatlarining rivoj topishini taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, xotamto'vlik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka movillik, g'amguzorlik, hamdardlik, velkadoshlik fazilatlarini vakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

Tolerantlik tarixini o'rganar ekanmiz, Movarounnahrda eramizdan oldingi VI asr ijtimoiy siyosiy voqealariga bo'lgan munosabatdan boshlashimiz mumkin. Movarounnahr xalqlari tarixi butun yaxlithigicha ozodlik va adolat uchun kurash voqealaridan iboratdir.

Ma'lumki, Eron shohi Kir Xorazm diyoriga yurish qiladi. Massagetlar shohi To'maris jangchilari va yurt oqsoqollari daryo sohillaridan o'tish uchun ko'priklar qurdirayotgan Kir va qo'shiniga qarata, bu xoinlikni to'xtatish, tinch-totuvlik va an'anaviy ittifoqda yashashga chaqiradi. Bu yerda xalqning yana tolerantlik xususiyatini ko'ramiz. Chunki xoinlik yo'lga o'tgan bo'lsa-da, Kirni tinch, ittifoqda yashashga, o'z manfaatini ustun qo'ymaslikka, xalqlarning an'anaviy turmush tarzi, an'ana va qadriyatlarini oyoq osti qilmaslikka, urf-odatlarini toptamaslikka, qo'shnichilik munosabatlarini buzmaslikka chaqiradi.²¹ Ammo odil fikrga quloq osmagan Kir daryodan o'tib, yurishni davom etadi. To'marisning o'g'lini ushlab qatl qiladi. Bu voqealar butun massaget xalqi qaxrg'azabini oshirib, dushmanga qarshi kuchli ijtimoiy kayfiyat, jo'shqin, jangovar ruh, yagona fikr ittifoqi shakllanishiga olib keladi. Hal qiluvchi jangda Kir mag'lub bo'ladi. Uning boshi butun xalq talabi bilan qon to'latilgan meshga soflnadi. Shunday qilib, adolatsiz urush boshlagan bosqinchi yovga qarshi, To'maris tomonidan real voqealar zaminida xalq orasida olib borilgan tushuntirish, tashviqot ishlarining ijtimoiy kayfiyat, ruhiy ko'tarinkilikni, iunbushga vetgan vatanparvarlik tuvg'usini, vagona fikr, maqsad, ittifoqni yuzaga keltiradi. Mazkur bitta dalil tolerantlik bilan bog'liq umumiy ijtimoiy kayfiyat, kuchli jamoatchilik fikrini tug'diruvchi omillarga asoslanganligiga guvoh bo'lamiz. Demak, tolerantlik nafaqat, har qanday holatga mute bo'lib yondashish, balki zarur hollarda ichki tizim va tartibotlarni saqlash, hamda, himoya qilishda xalqning birdamligini ta'minlash omili bo'lib ham xizmat qilgan.

Eramizdan avval 519 yilda Eron shohi Doro tomonidan Beshustun

²¹Бекмуродов М. Мовароуннахрда жамоатчилик фикри тарихи. –Т.: Фан, 1994. – Б. 37.

qoyalarga o'yib yozdirilgan tarixiy lavhalardan ayon bo'ladiki, Turon xalqi irodasi mustahkam, lafzi halol, oriyati kuchli, fidoiyligi cheksiz, adolatli maqsad, ozodlik yo'lida jasur, botirdir. Lavhada marvliklar qo'zg'oloni voqealari bayon etilib, Froda ismli xalq yo'l boshchisining mardliklari, Turon xalqining ozodlik yo'lida yalpi qirg'in-barotga uchrasa-da, metin qoyadek mustahkam turib, vatanni himoya etganligi ma'lum bo'ladi²².

Tolerantlik va uning takomillashib, rivojlanib borishi xalqimizning butun tarixi davomida kuzatiladi. Xalqimiz garchi yurtimizga bostirib kirgan kuchlar g'arazli maqsadlar bilan kelgan bo'lsa-da, o'sha dushman bilan ham tinch qo'shni bo'lib, o'zaro hamkorlikda yashashga harakat qilgan va natijada bosqinchilik bilan kelgan butun-butun o'zga millat va elatlar ham xalqimizga aralashib ketgan.

O'rta Osiyoda eftalitlar hukmronlik qilib turgan VI asrda Oltoyda ko'chmanchilarning Turk xoqonligi vujudga keldi. 563-567 yillarda Turk xoqonligi O'rta Osiyodagi Eftalitlar davlatini yo'q qilib, Amudaryo va Kaspiy sohillarigacha bo'lgan yerlarni o'z qo'li ostida birlashtirdi. Turk xoqonlari O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning boy oblastlarini o'zlariga bo'ysundirgan. Ular mamlakatning mahalliy hukmdorlar batamom boshqarib turgan ichki siyosiy va madaniy hayotiga aralashmaganlar, balki mahalliy hukmdorlardan belgilab qo'yilgan miqdorda har yili soliq olib turganlar. Mayda hukmdorlar ham hammasi garchi o'zlarini mustaqil hisoblasalar ham, Turk xoqonligiga qaram ekanliklarini hech qachon esdan chiqarmaganlar. Har bir hukmdor har yili yettisuv mamlakatiga sovg'a-salomlar yuborib turgan. Bundan ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilar bilan ham kelishib yashashga harakat qilganlar. Bunga misol qilib, arablar bosqinini olishimiz mumkin.

VIII asrda Movarounnahr xalqlari hayoti va faoliyati mazmuniga islom e'tiqodining singdirilishi, Allohning yagona va boqiy ekanligini anglash, Markaziy Osiyodan arab dunyosi va g'arb mamlakatlariga yo'l solinishi ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojlanishiga turtki berdi. Islom dini mohiyat e'tiboriga ko'ra, o'z-o'zini poklash, kamol toptirish, faoliyat va ijodiy harakatdan to'xtamaslik, boshqalarga muntazam ko'mak berish, savob ishlardan charchamaslik, yetim-esirlarga g'amxo'r bo'lish, Vatanga sadoqatda bo'lishga undovchi progressiv aqidalar majmui bo'lganligi bois, xalqimiz uni o'z ma'naviyatiga jobajo qildi. Islomning mamlakatimizga yoyilishi, mustahkam arabiy e'tiqodning singdirilishi, xalqimiz xususiyatlarida ilmga tashnalik, dinga chuqur e'tiqod, ulug'

²²Бекмуродов М. Мовароуннахрда жамоатчилик фикри тарихи. -Т.: Фан, 1994.

maqsadlarga sabot, sabr va mehnat orqali erishish fazilatlarini chuqur ildiz otdi.

O'рта Osiyo davlatlari arablarga qarshi kurashmoq uchun birlik front tuzishga, hatto, bir-biriga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzishga ham uringanlar. Tashqi xavf kuchaygan tarixiy vaziyatlarda, tolerantlik xalqimiz uchun milliy birlashuv, vakdillik g'ovasi hamda mavog'i vazifasini bajarib kelgan. Taassufki, o'tmishimizda bu omil aksariyat hollarda kerakli natija bermagan. Bu narsa biz tarix vorislari uchun saboqdir.

Tolerantlik o'z millatini boshqalar tomonidan kamsitishga yo'l qo'yish emasdir. Bu tuyg'u kishilarni shunchaki olijanob qilib qo'ymaydi, balki, uning xulq-atvorini, axloqini, siyosiy va ma'naviy pokligini, burchga, o'z xalqiga va uning muqaddas narsalarga bo'lgan munosabatini ham ko'p jihatdan belgilab beradi. Bular insonda grajdanlik, vatanparvarlik, baynalmilallik tuyg'ularini ham uyg'otadi.

Dastlabki yillarda arablar d'm bilan birgalikda arabiy odatlarni ham singdirishga harakat qildilar. Ammo, o'zbek tolerantligi hamma narsani qurbon qilishga tayyorlikni ifodalasa-da, milliy-mahalliy urf-odatlariga tajovuz bo'lishini kechira olmaydi. Shu boisdan, VIII asrning o'rtalariga kelib, arab bosqinchilariga qarshi xalq harakati yangi kuch bilan avj olib ketdi. Abu Muslim va Muqanna Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olonlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Xalqimiz xarakterida chuqur ildiz otgan qatiyat va o'ziga mustahkam ishonch, boshqalar dardiga hamdardlik, o'zga xalqning taqdiriga chuqur hurmat va ehtirom bilan yondashish, adolatparvarlik, halollik singari fazilatlar, jangovarlik va mardlik, vatanparvarlik, e'tiqod qatiyhigi, so'z va ish birligiga rioya qilish, lafz halolligi xislatlari shubhasiz, mamlakatimiz tarixining eng shukuhli sahifalaridan biri bo'lgan temuriylar hukmronligi davrida shakllanganligini alohida ta'kidlash joiz.

Keng xalq ommasi fikrini so'rash, elning yetuk vakillari, donishmand shaxslar mulohazalari asosida ish yuritish sohibqiron Amir Temur saltanati davrida keng tus oldi. Tolerantlik endi odillik, xalqparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik va hakoza xususiyatlarda namovon bo'la boshladi.

Amir Temur muayyan maqsadni amalga oshirishda asosan ko'pchilikka tayanadi. Ayni chog'da, xalq o'z orzu-umidlarini Amir Temur shaxsi bilan jiddiy bog'laydilar. Bu yerda tolerantlik o'zaro hurmat, mehr-oqibat xislatlarida namovon bo'ladi. Xalq Amir Temurning nasliyi, milliy kelib chiqishi, chuqur bilimga egaligi, yuksak salohiyati, o'tkir did va farosati, jahongirlik fazilatlarini munosib baholadi.

Tolerantlikni tadqiq qilar ekanmiz, tasavvuf oqimining asosiy

namoyandalari ilgari surgan qarashlarga e'tibor bermay ilojimiz yo'q. Tasavvuf g'oyat murakkab va serqirra diniy-falsafiy oqim bo'lib, uning diqqat markazida eng asosiy o'rinni Alloh, u bilan bog'liq ilohiy qadriyatlar, shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat g'oyalari egallaydi.

Tasavvufning yirik namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy diniy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning o'sha zamonga mos keladigan tizimining namoyon bo'lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtai nazaridan ta'riflab bergan. So'fiylik asoslarini targ'ib qiladigan "Devoni hikmat" majmuasida Ahmad Yassaviy bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik, poklik, havo kabi xislatlarga ta'rif berish orqali, insoniy fazilatlarining turmush nehog'li ustuvorligiga ahamiyat qaratadi. Yassaviy tariqatining birinchi va asosiy fazilati uning xalqchilligidir. Unda ham Olloh, ham inson madh etiladi. Yassaviy o'zining "Hikmat"larida insonni qadrlaydi, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga chaqiradi. Bu haqda u "Qayta ko'rsang ko'ngli sinuq, malham bo'lgil, andog' mazlum yo'lda qolsa, hamdam bo'lgil"²³ deydi.

Tasavvuf falsafasi odamlarni sabr-toqatli bo'lishga, iymon, odob-axloq, diyonat, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga da'vat etgan. Odamzotni yomon yo'lga boshlamagan. Shuning uchun ham kishilar tasavvuf falsafasi qoidalarini jon-jon deb qabul qilganlar va uning yaxshi o'gitlariga hali-hanuz qat'iy amal qilib kelmoqdalar.

Inson o'zining botiniv dunvosini ilm-ma'rifat bilan bahramand etishga intilishi, zohirda kamtarinlik, dojmo el-ulus bilan birga bo'lish, varatish ishlaridan chetda turmaslik hazrat Bahouddin Naqshband tariqatining asosini tashkil etadi. Kishilar yaxshilikni ko'zlab birlashishlari lozimdir. Intiqom, o'ch, dushmanni yo'q qilish faqat ikki holdagina ham qarz, ham farz hisoblanadi. Birinchisi, dinu tariqatga xavf solingan hollarda, ikkinchisi, dushman Vatan taqdiriga tahdid solganda har bir mo'min-musulmon yakdil chiqishlari lozimdir. Muhammad Alayhissalom aytdilar: "Tangriga imon keltirgandan keyingi amallarning afzali - bu odamlar bilan do'stlashishdir. Hazrat Bahouddin der emishlarki, bizning tariqimiz suhbatdur va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat, hayriyat jamiyatdadur va jamiyat suhbatda, bu shart bilki, bir-biriga naf bo'lingay"²⁴. Shayx Muborak Ahmad (Vashington, AQSh) "Dinda zo'rlikka o'rim yo'q" maqolasida islomda tolerantlik to'g'risida so'z yuritadi. Islomda e'tiqod va vijdon erkinligi birday targ'ib

²³Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. - Чимкент.: 1992.- Б. 11.

²⁴Садрилдин Салим Бухорий. Дилда ёр. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. - Б. 29.

qilinadi. Muhammad payg‘ambarga xos diniy erkinlik va tolerantlikning namoyishi sifatida payg‘ambar hayotining ikkinchi yarmini misol qilib keltiradi: bu pallada u qanoat, kechirimlilik, mehribonlik, saxiylik va mardlik kabi fazilatlarini namoyish etdi. “Uni Makkadan badarg‘a qilganlarni avf etib, muhtojlarga mol-davlat in‘om etdi va dushmanlarini yengib, barchasining gunohidan kechdi”.²⁵

Yuqoridagilardan ayonki, hazrat Bahouddin Naqshband Our‘oni Karimdagi umuminsoniy talab va tamoyillardan kelib chiqqan holda odamlarni faqat yaxshilik vo‘lida birlashishlari, tanriga doimo shukrona avtib yashash joizligi, do‘stlik va muhabbat asosidagi ko‘ngil va fikr vakdilligiga intilishga chaqiradi. Insonlar zohirona shuhrat, manmanlik qusuridan xalos bo‘lishlari, kamtarinlik fazilatlarini kamol toptirishlari, faqat jamoat orasida ruhiy osudalik, ma‘naviy barkamollik mujassam ekanligidan xabardor bo‘lishlari, har qanday jamoat, xalq vo‘lida o‘zaro ma‘naviy manfaatli munosabatlar o‘rnatishga intilishlari maqsadga muvofiqdir. Har qanday muammo yuzasidan yagona fikr ittifoqini yuzaga chiqarish uchun ko‘pchilikka quloq osish haqiqat yo‘lini topishni tezlashtiradi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, tolerantlikni tashkil etuvchi barcha tizimiy belgilar xalqimizning butun tarixi davomida shakllanib, rivojlanib kelgan.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllanib va avaylanib kelingan ijobiy rasm-udumlar va odatlarda vatanga sadoqat, voshi kattalarga hurmat, ota-ona, vetim va qarivalarga g‘amho‘rlik, mehmondo‘stlik, qon-qarindoshlik va o‘zaro vordam, oila sharafini, avollar sha‘nini ehtivotlash, hayotdan ko‘z yumgan yaqin, uzoq kishilar xotirasini yod etish kabilar ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan bayram va marosimlarda ochiq namoyish etiladi. Asrlar osha saqlab kelingan va ijtimoiy mohiyatga ega urf-odatlardan yana biri - og‘ir, mashaqqatli kunlarda o‘z yaqinlarining ochlik va kambag‘allikdan saqlanish, gadolik yoki daydilik qilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Agar shunday odam chiqib qolgudek bo‘lsa, uning isnodi barcha qarindosh-urug‘larga, mahalla-kuyga, xalqiga kelgan.

Mustaqillik sharoitida bizning millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin, qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jo‘g‘rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o‘zgarimoqda. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Turkiston mamlakatlari xalqlari tarixi, ularning kelib chiqishi, o‘ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo‘shnichilik

²⁵Человек: образ и сущность. Толерантность ва архитектоника эмоций. - М.: Росс.ак.наук., 1988. - Б. 93.

munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni taqazo qilmoqda. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan, tarixan bir muhitda yashab, o'tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq, ayni paytda, mustaqil davlat bo'lib yashayotgan mamlakatlar o'z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o'zaro hamkorlik munosabatlarini qavtadan tiklashini hayotning o'zi zarurat darajasiga ko'tarmoqda. Qardosh xalqlar va qo'shni mamlakatlar umumiy xonadonini tashkil etish, yagona zamin, yagona makonni qaror toptirish, belgilashning ma'naviy poydevori - bu olis o'tmish mushtarakligini, shu asosda, shakllangan urf-odatlar, an'analar va turmush tarzini chuqur o'rganishdir. "Turkiston - umumiy uyimiz" shiorining mazmuni, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mohiyati ana shunda.

Xulosa o'rnida quyidagilarga ko'proq e'tibor berishga harakat qildik.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida bir qancha omillar ta'sirida hozirgi O'zbekiston hududida yashovchi millatlar va elatlar soni ko'p marta ortdi. Bu yerda ruslar, ukrainlar, beloruslar, yahudiylar, armanlar, tatarlar, qrim tatarlari, litvaliklar, latishlar, estonlar, yunonlar istiqomat qilishardi. Hozirgi vaqtda respublikada yuzdan ortiq millat va elatlar bor. Bizningcha, mana shu tarixiy faktning o'zi yangi zamon kishisida tolerantlik omillarini shakllantirish va rivojlantirish muammosini nazariy va falsafiy jihatdan ishlab chiqish qanchalik muhim, dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifa ekanligini yaqqol ko'rsatib va isbotlab turibdi.

Ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar mezonlarining almashinuvi, jamiyatlardagi sifat o'zgarishlari jahon tarixining ma'naviy mohiyatini shakllantiradi. Bu mohiyat har xil madaniyatlarning murakkab sintezlari va o'zlashtirmalari orasidagi keskin to'qnashuvlarda bo'lgani kabi, ularning o'zaro muvofiqlashuv jarayonida ham shakllanib boradi.

Bu obyektiv holat o'ziga alohida diqqat-e'tibor berishni jamiyatda o'zaro totuvlik, o'zaro ishonch, o'zaro yordam va umuman siyosiy barqarorlik vaziyatini yaratish uchun iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy shart-sharoitlarni ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilishni qat'iy talab qiladi.

Xullas, tolerantlik xalqning tarixiy-madaniy tajribasi mahsuli bo'lib, quyidagi tizimiy belgi va xususiyatlarni namoyon etadi:

- tolerantlik - tarixan xalqning milliy-etnik birligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorligini saqlab qolish, ichki yakdillikni muhofaza etishning kuchli poydevori, mustahkam asosi vazifasini o'tab kelgan.

- tolerantlik - xalqning umumiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lida ruhiy ko'tarinkilikni ta'minlash, vatanparvarlik tuyg'ularini

kuchaytirish, xavf umumiy bo'lganda, ozodlikka erishish uchun xalqning yagona fikr ittifoqini yuzaga keltirish omili sifatida maydonga chiqqan.


TOLERANTLIKNING TARKIBI VA TIZIMYI JIHLTLARI

Tolerantlik o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy munosabatlar hosilasi sifatida jamiyatning ijtimoiy-tarixiy holatiga muvofiqdir. U jamiyatning o'ziga xos obrazi, real ifodasi bo'lib, shu jamiyatga xos bo'lgan jamiki xossalarni o'zida yaqqol ifodalaydi. Ayni vaqtda, tolerantlik aniq belgilangan tizimdan iborat yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida xalqni o'ziga xos tarzda birlashtirib, uning takomilini belgilaydi.


Tolerantlikning to'laqonli yaxlit ijtimoiy hodisa ekanligini, uning tizim tashkil etuvchi belgilari ko'p jihatdan ifodalab beradi. Tizim yasovchi belgilar muayyan voqelik zahirida, o'z-o'zicha, tarqoq joylashgan bo'lmay, obyektning ichki qonuniyatlariga muvofiq o'zaro aloqada va chambarchas hog'liqlikda ish bajaradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, tizimiy belgilarning o'zaro nechog'li muvofiqligi, bir-biriga qanchalik mutanosibliyi obyektning yaxlitliy shakllanishi jarayoniga shunchalik faol ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida tolerantlikka ta'rif berishda, uning tizim yasovchi belgilarining o'rni va ahamiyatini to'g'ri aniqlash juda muhimdir. Tadqiq etilayotgan masalaning tizim yasovchi belgilari nazariy tadqiq va empirik tahlil natijasida quyidagilardan iborat ekanligiga ishonch hosil etdik.


Tolerantlik namovon bo'luvchi ijtimoiy ong shakllari.



Tolerantlikni ta'minlovchi omillar tizimi:



Tolerantlikka ta'sir qiluvchi omillar tizimi:



Tolerantlik xususiyatlari tizimining tarkib topishi, muayyan shakl-shamoyil hosil etishi jamiyatning bazisi va ustqurmasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tolerantlik jamiyatning o'ziga xos milliy-ma'naviy mafkuraviy quroli hamdir. U jamiyatni ichdan idora qilishning qulay vositasi sifatida hamma davr va makonda saltanatlar va xoqonlar, xonliklar va amirliklar siyosatining muhim jabhasi sifatida ahamiyatli bo'lgan.

Tolerantlik ijtimoiy tuzum xarakteriga ko'ra sinfiy yo'nalishga ega bo'lishi, umuminsoniy tamoyillar qaror topgan jamiyatda esa sinfiy, milliy, irqiy yoki guruhliy chegaralanishlardan holi amal qilishi ham mumkin. Tolerantlik - umuminsoniy qadriyatlarning adolat, ozodlik, hurmat, tenglik, hamkorlik, tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, vatanparvarlik, mehribonlik, sadoqatlilik singari tushunchalari bilan bevosita bog'liqlikda bo'lib, ularning birortasi mazmunida muvozanat buzilgudek bo'lsa, tolerantlik mehrsizlikka, egoizmga aylanib ketadi. Lui J.Xemmeni (AQShdagi Gettisberg universiteti professori) tolerantlikni o'ziga xos ijobiy ma'naviy xislat deb hisoblaydi. Biroq boshqalarni tushunish, anglash istagi favqulodda qiyinchiliklarni paydo qilishi va jiddiy muammoga aylanishi mumkin. Tolerant xatti-harakatni har qancha ijobiy deb baholagan bilan, baribir, "tolerantlik" tushunchasi u qadar ravshan emas.

Biz o'rgangan ma'nodagi tolerantlik o'zgalarni ochiq dialogga taklif qilish hamda ko'ngilsiz, nafratga loyiq elementlarga bardosh berish o'rtasidagi diapazonda amal qilib kelmoqda.

Sinfiy, milliy va diniy sarqitlar odamlarni bir-biri bilan janjallashuviga olib keladigan farq, tafovutlarni yuzaga keltiradi. Gap shundaki, tolerantlik qo'qqisdan paydo bo'lgan yaxshi xislat emas. Taqdir taqazosi ila biz bir-birimizni sevishimiz darkor. Garchi Olloh odamlarni mehroqibatli bo'lishga da'vat etgan bo'lsada, tolerantlikning ham chegarasi bo'ladi, chunki tolerantlik zaminida sabrsizlik yashiringandir.²⁶

Popper "tolerantlik paradoksi" muammosini quyidagicha yechadi – biz xayrixoh bo'lmaganlarga nisbatan xayrixohlikka muhtoj emasmiz. Noxayrixohlar – bizning erkimizni zo'rlik bilan cheklayotganlar. Noxayrixohlarni kuch ishlatib bostirish kerakmi yoki yo'q – bu masala vaziyatga qarab hal etiladi.²⁷

"Tolerantlik" murakkab so'zdir, chunki sabrsizlik, hamkorlik

²⁶Человек: образ и сущность. Тolerантность и архитектоника эмоций. – М.: Росс.ак.наук., 1998. – Б. 90.

²⁷Человек: образ и сущность. Тolerантность и архитектоника эмоций. - М.: Росс.ак.наук., 1998. – Б. 90.

qilishdan voz kechish doimo u bilan yonma-yon keladi. Haqiqiy tolerantlik o'zida yashirin xatarni mujassam etadi, chunki aksariyat hollarda "Men"ning o'zgarishini talab qiladi.²⁸

Tolerantlik har bir xalqda har xil darajada shakllanadi va namoyon bo'ladi. Uning shakllanish davri va ifoda etilish shakli, ko'lami, xalqning hayot tarzi, tarixiy-madaniy kechmishi, an'analari, ruhiyatning o'ziga xosligi, umummilliy temperament, tabiat, iqlim sharoitlari, iqtisodiy ahvoll, ilmiy-texnik takomil darajasi, estetik-axloqiy tayyorgarligi, diniy-irqiy mansubliklar bilan bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham tolerantlik murakkab ijtimoiy-ilmiy tushuncha sifatida o'zining ko'p tarmoqli ichki tarkibi va mazmuniga ham egadir. Bunday keng va murakkab tushunchani faqat unga yaxlit ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida qarab, atroflicha o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Shu jihatdan tolerantlikka muayyan tizim sifatida yondashib, uning mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rnini belgiflash muhim ahamiyatga ega. Ayni chog'da, unga falsafiy kategoriya sifatida qaralib, materiyaning obyektiv amal qilish shakli tarzida, ya'ni tushuncha holda ongda o'z ifodasini topishini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Tolerantlik falsafasining asosida shaxslararo nizolarni zo'ravonliksiz hal etish metodlari yotadi. Tolerantlik – o'zga shaxsga yoki narsaga, yoxud begona yoinki farqlanuvchi shaxs-hodisaga nisbatan o'z his-tuyg'ularingizni qo'lga ola bilish demakdir. O'z-o'zini cheklash iroda kuchiga ega bo'lmoqlik demakdir. Tolerantlik o'z-o'zini cheklash orqali ifodalangan irodadir va bu o'zgalar fikriga xayrixoh – murosasozlik bilan qarash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, "tolerantlik" so'zining mazmuni muayyan standartlar yoki mezonlardan chetga chiqishga yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilarini ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa tolerantlik har doim murosasozlik, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini cheklash qobiliyatidir.

Milliy mustaqillik tufayli jamiyat hayotining barcha sohalarida asta-sekin amalga oshirilayotgan poklanish, birinchi navbatda, ma'naviy hayot borasida tobora oydinroq ko'zga tashlana boshladi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, ularda iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya borasida milliy, umuminsoniy, islomiy ananalar va qadriyatlardan keng va unumli foydalanish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli

²⁸ Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. - М.: Росс.ак.наук., 1998. - с. 93.

fidoyisiga aylantirish hozirgi kunning asosiy maqsadidir. Iymonni, e'tiqodni, umuman olganda, tom ma'nodagi insoniylikni ta'minlovchi barcha omillar qalbida chuqur tomir otgan fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi.

Shuning uchun tolerantlikni o'rganish va shundan kelib chiqib ish ko'rish, O'zbekiston mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash vazifalari bilan bog'liq ravishda tadqiqot olib borish hozirgi kundagi dolzarb vazifadir.

Bugungi kunda tolerantlik muammosi madaniy ta'sir o'tkazish, madaniy ekspansiyaga yo'l qo'yish muammosiga aylanmoqda. Bu siyosiy iroda, siyosiy va harbiy xatti-harakatlar bilan bog'lanadi. Madaniy tolerantlik madaniy qiziqqonlikka ziddir. Madaniy kelishmovchilik — nizo holatidagi millatlar o'rtasida tolerant munosabatlar o'rnatish imkoniyati, basharti u ichki ong darajasida shakllantirilgandagina oydinlashadi. Bu holda tolerantlik madaniyatining hayotiy dunyosi, o'zining voqeligi o'ziga xosligini, uning vakillari esa ular o'z turmushlarining ekzistensial ma'no-mohiyatini saqlab qoladigan so'nggi asoslar masalasiga aylanadi. Ya'ni tolerantlikning so'nggi sarhadlari — bu, ehtimol madaniyatli olamning “xarobalar”i bo'lishi mumkin. Modomiki, madaniy tolerantlikning o'zi tolerantlik me'yoridir.

Agar qonunlarga va adolatga, boshqa ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga so'zsiz rioya qilinsa, millatlararo tolerantlik tez shakllanishi va rivojlanishi mumkin. Agar u yoki bu xalqlar va elatlarning vakillari o'zlarini boshqa xalqlarning ahvoli, mavqei, taqdiri uchun javobgar deb hisoblasalar, har bir xalq boshqa bir xalqning mustaqilligini hurmat qilsa, bir xalq o'z manfaatlarini va boshqa xalqlar manfaatlari bilan bir xil deb bilsalar, ularni mustahkamlash va rivojlantirish imkoniyatlarini qidirib topsalar millatlararo tolerantlik tobora rivojlanib, mustahkamlanib boradi.

Millatlararo tolerantlik, har bir millat va elatning o'z vazifalari va burchini anglab yetishni nazarda tutadi. Bu vazifalar va burch ko'p millatli muhitda hayot kechirish, shu jumladan, o'zining munosabatlariga, malaka va ko'nikmalariga, muloqot olib borish ehtiyojiga talabchanlik bilan qarash zarurligi, ya'ni bir-birini tinglash, tushunish, shuningdek, ko'p yillar mobaynida to'planib qolgan muammolarni sabr-toqat bilan o'zaro maslahatlashib, har qaysi tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich ijobiy hal qilishga intilishni taqazo qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jamiyatimizning hozirgi kunida tolerantlikning barcha omillarini hayotga tadbqiq etish juda zarurdir.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, tolerantlik millatlararo aloqa madaniyatida millatlar va elatlarga o'zligini anglatishi bilan birga quyidagi

masalalarni ham e'tiborga olishni taqozo etadi:

- millatlar, elatlar, irqning o'zaro bir-birini hurmat qilishi;
- har bir millat, elatning tillarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish;
- har bir xalq tarixini hurmat qilish;
- boshqa xalqlar milliy urf-odat va marosimlariga sabr-toqat bilan yondosha bilish;
- turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarga xalal bermaslik;
- milliy fe'l-atvor xususiyatlarining hisobga olinishi millatlararo totuvlik jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, o'z xalqining tarixini, urf-odatlarini tizimi, marosimlari, turmush tarzi o'ziga xosliklarini anglash va chuqur idrok etish nihoyatda muhim va zaruriy hol bo'lib, tolerantlikka bevosita ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar ham tolerantlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qayta qurish yillarida kommunistik mafkura arboblarning jazavasi bilan xalqimiz qon-qoniga singib ketgan milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarini oyoq osti qilindi, kishilarning turmush tarziga aylangan islom diniga qarshi kurash yanada keskinlashdi. U bid'at va xurofot sifatida qoralandi. "Dim-afyundir" degan dahriylik shiorini har tomonlama yoyishga bo'lgan urinishlarga qaramay, imon va e'tiqodi kuchli bo'lgan xalqimizning asosiy qismi yuragida dinga bo'lgan munosabat o'zgarmadi, uni avaylab-asrab yurdi.

Ammo dindan o'z manfaati yo'lida foydalanuvchi aqidaparast kimsalar, islom dinini himoya qilish niqobida qo'poruvchilik ishlari bilan shug'ullanishdi. Moddiy qiyinchiliklar girdobiga tushib qolgan aholining kayfiyatidan foydalanishga, hukumat idoralari bilan xalq o'rtasiga nifoq solishga urinishlar bo'ldi. Bularning natijasida Namangan, Andijon, Farg'ona va Toshkentda turli noxush voqealar sodir bo'ldi.

Ana shunday og'ir va ziddiyatli bir paytda, Islom Karimov, birinchi navbatda, respublikada siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lini tutdi. "Madaniy merosni va tarix haqiqatini tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirish, yaqin o'tmishdagi ruhiy kushandalik mafkurasiga zid holda islom dinining yuksak ma'naviyat va madaniyat vositasi ekanligi, u odamlarni insofqa, diyonatga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka da'vat etuvchi g'oyat kuchli qurol ekanligi Islom Karimov tomonidan ochiq-oydin aytiladi va to'g'ri baholandi"²⁹

Qayd etish lozimki, u yoki bu millat va elatning alohida ajralib

²⁹Ватан туйғуси. Т.:Ўзбекистон, 1996. – Б. 264.

turishlikka moyilligi, ayirmachilik kayfiyatlarini o'z manfaatlarini boshqa millatlar (elatlari) manfaatlaridan ustun qo'yishga bo'lgan rag'batini salbiy holatlarga olib kelishi sir emasdir. Bundan tashqari, yana bir muhim holatga e'tiborni qaratish lozimki, tolerantlik xususiyatlarining past darajada shakllanishi tabiiy ravishda o'z manfaatlarini bir tomonlama tushunishga, boshqa millatlar (elatlari)ning manfaatlari bilan hisoblashmaslikka va boshqa nuqsonlarga olib keladi. Bu hodisa esa, o'z navbatida, milliy mahdudlik va ekstremistik kayfiyat tug'dirishi mumkin. Ekstremizm belgilari sifatida toqatsizlik, qo'rqitishga harakat qilish, millatlararo munosabatlar muammolarini hal qilishda qonun bilan ham, axloqiy me'yorlar bilan ham hisoblashmasdan, o'z qarashlarini, o'z irodasini zo'rlab tiqishtirish kabi tolerantlikka zid xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ekstremizmga xos bunday belgilar millat va elatlarning o'z-o'zini anglash jarayonlarini boshi berk ko'chaga olib kirishi va eng dahshatli millatlararo to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Islom Karimov o'zining "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida ta'kidlaganidek: "... Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo'yish, milliy ustunlik mavjudligi to'g'risidagi afsonalarni tarqatish yo'lidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim. Holbuki, ham mintaqadagi, ham chet eldagi ba'zi mas'uliyatsiz, kaltabin va kibru-havoga berilgan siyosiy arboblari ana shunday harakatlarni sodir etmoqdalar. Bunday urinishlar qanday bahonalar bilan niqoblanmasin, ular faqat mintaqadagi fuqarolar tinchligini va mintaqalararo totuvlikni jiddiy buzishgagina xizmat qiladi, xolos. Bu hol nimalarga olib kelishi mumkinligini sobiq Yugoslaviya, Tog'li Qorabog' va boshqa ko'p millatli mamlakatlardagi fojiali voqealar ko'rsatib turibdi. Afsuski, bizning o'zimiz ham bu sohada achchiq tajribaga egamiz. O'shanda ayrim ekstremistik kayfiyatdagi guruhlar sal bo'lmasa, odamlarning millatlararo to'qnashuvini va qarama-qarshiligini keltirib chiqarayozgan edi. Baxtimizga o'zbek xalqiga xos aqli rasolik, donolik, insonparvarlik va bag'rikenglik ana shunday guruhlarning manfaatlaridan ustun chiqdi, ekstremizm yo'lida qudratli to'siq bo'ldi³⁰".

Darhaqiqat, tarix taqazosi bilan Markaziy Osiyodagi davlatlar: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikistonda aholining tarkibi azal-azaldan ko'p millatli bo'lib kelganligini hisobga olgan holda, bu hududda tinchlik, osoyishtalik, millat va elatlarning

³⁰Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 447-448.

o'zaro yordam, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini o'rnatish muhim bo'lib, ham siyosiy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Shu bois, bu davlatlar milliy siyosatni nihoyatda chuqur, atroflicha o'ylab olib borishlari, pishiq va yetuk milliy siyosat konsepsiyasini ishlab chiqishlari va uni hayotga tadbiiq etishlari zarurdir. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, milliy an'analarini, tarixiy-jo'g'rofiy shart-sharoitlarini, milliy fe'l-atvorlari va hokazo xususiyatlarini hisobga olish zarurdir. Bunday yondashuv har bir millat vakillarida o'zaro va millatlararo tolerantlikni shakllantirishning muhim ijtimoiy-siyosiy negizini, asosini tashkil etadi.

M.D.Kultaeva (Xarkov) "Ijtimoiy davlat va tolerantlik"³¹ maqolasida mohiyatan tolerant bo'lgan ijtimoiy davlatning tipologik va funksional xususiyatlarini aniqlashtirib berdi. Bunday davlatning mazmun-mohiyati va maqsadi, asosiy inson huquqlarini amalga oshirish va shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush darajasini kafolatlashdan iborat. Bunday kafolatlar jamiyatda individualizm va birodarlik singari bir-biriga tamomila zid bo'lgan ko'rsatma va turmush yo'nalishlarining birga mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Ijtimoiy birdamlik muammosi posttotalitar jamiyatdagi manfaatlar to'qnashuvlarini ko'rib chiqish vaqtida chietda qolib ketmasligi lozim. Ijtimoiy birdamlikni shaxsiyatni bo'g'uvi shaxsiyatni namunadagi jamoachilik (kollektivizm) bilan adashtirmaslik lozim. Chin ma'nodagi ijtimoiy birdamlik, avvalambor, nokorporativ yondashuv, har bir fuqaroning kamol topishiga ko'maklashuv orqali ifodalanadi. Shu sababli ijtimoiy davlatga xos bo'lgan ochiq oshkorlik va universallik kabi tamoyillar bilan bir qatorda tolerantlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.³² Davlat tamoyili maqomida e'tirof etilgan tolerantlik, ijtimoiy va madaniy rang-baranglik konstruktiv salohiyatini ochib beradi, hamda siyosat va insonlararo munosabatlarning oliyjanoblashuviga ko'maklashadi.

Ma'lumki, faqat tenglarga nisbatan tolerant bo'lish mumkin. Qat'iy ierarxiyali jamiyatlarda xushmuomalalilik va tolerantlik emas, balki tavoze va kibrli iltifot hukmron. Tolerantlik erkinlik, tenglik va taraqqiyot g'oyalari bilan uzviy bog'langan. Ijtimoiy safarbarlik tolerantlik tarnoyilining o'zlashtirilishi uchun qulay zamin yaratadi.

Hukmronlik va bo'ysindiruv mafkurasidan bosh tortgan demokratik

³¹ Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. - М.: Росс.ак.наук., 1998. - Б. 241.

³² Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. - М.: Росс.ак.наук., 1998. - Б. 241.

jamiyat sharoitida tolerantlik aksariyat hollarda kuchlilarning zaiflarga munosabatida ifodalandi. O‘z huquqlari uchun kurash yo‘liga turgan ozchilik tolerantlikka moyil emas, chunki ular nafaqat ovozlarni atrofdegilar eshitishini, balki ularni kamsitilgan ahvolga qo‘yuvchi hukmron me‘yorlar va tamoyillarni inkor etib, bekor qilishga intiladi. Biroq, imtiyozga ega guruhlar pozitsiyalari zaiflashgan sari hayrixohligi kamayib boraveradi.³³ Qarshi tomonlarni o‘tkir ziddiyatli vaziyatda tolerantlikka chaqirish – nojoiz strategiya. Tolerantlikka tayanib nizoning oldini olish mumkin, lekin uni hal etib bo‘lmaydi.

Tolerantlik - xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga, har bir xalqqa o‘zini shu mamlakatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lishiga, uning vakolatli va mas‘uliyatli subyekti deb his qilishga ham imkon beradi. Tolerantlik hamisha millatlar va elatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida shakllanib, mazkur munosabatlar tizimining mazmuniga ko‘ra ijtimoiy ta‘sir ko‘lamlarini belgilaydi. Bu esa jamiyatning barqarorligi, har bir millat va elatning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tolerantliksiz mintaqalardagi, butun dunyo hamjamiyati miqyosidagi xalqaro va regional munosabatlarga taalluqli birorta ham masala ijobiy hal etilishi mumkin emas.

Hozirgi vaqtda shu narsa tobora yaqqol ko‘zga tashlanmoqdaki, iqtisodiy, harbiy, siyosiy, ijtimoiy, ma‘naviy, axloqiy muammolarni hal qilishga to‘siq bo‘lib turgan narsa - tolerantlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi, uning muayyan mamlakat uchun ham, shuningdek, butun dunyo hamjamiyati uchun ham mohiyati va ahamiyatini nazarpisand qilmaslikdir.

Totalitar tuzum davrida bir tomondan xalqlarning ma‘naviyatidan uzib qo‘yish borasida puxta rejalashtirilgan siyosat yurguzib kelindi. Xalqlarni o‘zligidan begonallashtirish siyosati turli shakllarda amalga oshirildi.

Hozirgi zamonning ilg‘or kishilari Prezidentimiz I.A.Karimovning “...Tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik va ishonch olg‘a harakatlantiradi”,³⁴ - degan fikrlariga qo‘shiladilar.

Millatlararo, mintaqaviy, keng qamrovli muammolarni hal qilishning, insoniyatni qutqarishning, uning munosib hayot kechirishini ta‘minlashning zarur sharti - millatlar, elatlarning, mamlakatlar, ularning vakillari bo‘lgan davlatlarning hududiy, harbiy, iqtisodiy asoslarda emas, balki birlashuvi, hamkorligidan iborat ekanligi tobora ko‘proq xis

³³ Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. -М.: Росс.ак.наук., 1998. – Б. 242.

³⁴Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 680.

qilinmoqda. Binobarin, bu ijtimoiy tarixiy zarurat barcha darajadagi millatlararo munosabatlarni mehr-shafqat, hurmat, bag'rikenglik, keng fe'llik asoslarida shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'lib, ular tom ma'noda talqin etilganda insonparvarlik mohiyatining asosi bo'lib qoladi. Bunday hamkorlik, birlashish insoniyatga xos bosh xususiyat, ya'ni integrasiyaga intilish harakatining mahsulidir.

Tabiiyki, bunday xulosa tolerantlikni namoyon etuvchi quyidagi tamoyillarni alohida tasniflashni talab etadi:

- ◆ millatlar, elatlar, mamlakatlarning tarixiy va madaniy merosini, tillari, adabiyoti, san'atini o'zaro hurmat qilish;

- ◆ o'zaro munosabatlar doirasida yuzaga chiquvchi muammolarga tushunib yondashish;

- ◆ o'zaro munosabatlar doirasida rivojlanuvchi intilishlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish;

- ◆ oshkoralik, samimiylik, o'zaro ishonch va ma'suliyatning o'zaro muloqotlar tizimining barcha bosqichlarida namoyon bo'lishi;

- ◆ o'zaro mehr-muhabbat, insonparvarlik;

- ◆ sabr-toqat, muammolarni hal qilishning murosali variantlarini qidirish va topishni istash.

Shunday qilib, tolerantlik - bu millatlar, elatlar, mintaqalar, qolaversa, butun kishilik hamjamiyatining barcha jarayonlarida bag'rikenglik, saxovatlilik, hurmat, sabr-toqat, yaxshilik qilish hamda bir-birlarini o'zaro tushunish asosida harakat qilishni anglab yetishdir.

XXI asr bo'sag'asida yangi mustaqil davlatlar vujudga kelib, ular xilma-xil ichki va tashqi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularning hammasi ham yuzaga kelayotgan muammolarning yechimini ichki manba va imkoniyatlarga tayangan holda jahon hamjamiyatining manfaatdor ishtirokidan izlamoqda. Ayni vaqtda, ular bilan qo'shni davlatlar o'rtasida turli yo'nalishlarda ko'p asrlik umumiy aloqalar mavjud. Shu tufayli, ularning o'zaro hamkorlik qilish istagi tabiiy hisoblanadi. Hamkorlik tolerantlikni ta'minlovchi omillardan biri hisoblanib, o'zaro vordam berish, qo'llab-quvvatlash ma'nolarida ishlatiladi. Hamkorlik - avvalo oiladan boshlanib, aka-uka, qarindosh-urug', yoru-birodarlar o'rtasidagi munosabatlarda aks etadi. Ana undan keyin mahalla-ko'ydan boshiab, davlatlararo munosabatlarda ham aks etishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar va inson hayotining daxlsizligi bevosita yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa, ana shu muammolarni hal etish jarayonida o'z erki va haq-huquqlarini himoya qilib boraveradi. Jamiyat

taraqqiyotiga mos ravishda aholi “tarbiyalanib”, shakllanib, barkamollashib boradi. Ayni paytda, biz xuddi ana shunday jarayonlarni boshdan kechirmoqdamiz.

Tabiiyki, tolerantlik mafkura, axloq, dim va boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan uyg'unlikda amal qiladi. Ammo ana shu ong shakllari aholi turli tabaqalari, xususan yosh jihatdan farqlanuvchi qismlarida o'ziga xos namoyon bo'lishi tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra oydinlashdi. Millatning yakdilligi ko'p jihatlardan aholi turli tabaqalari o'rtasidagi muvofiqlik darajasiga bog'liqdir. O'tkazilgan sosiologik tadqiqotlar xalqimiz yosh senziga ko'ra, tolerantlikka o'ziga xos yondashuvi ma'lum bo'ldi.

Bozor iqtisodiyoti talablari, turmush tarzining bir muncha individuallasuvi tabiiyki, xalq tolerantligiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu narsa tolerantlikning katta yoshidagi aholida o'sib kelayotgan avlodga ko'ra ustuvor xususiyat sifatida namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Endi shu sosiogramмага diqqatimizni qarataylik.

Tolerantlik namoyon bo'lishining yosh bo'yicha aniqlanishi.



- Sabr-toqat bir insonga kerak va men sabrliман deb o'ylaysizmi?
- O'z manfaatini ustun qo'ymaslik, boshqalar urf-odatlariga toqat, andishilik kabi xislatlarni har doim kerak bo'luvchi ijobiy fazilatlar deb tushunasizmi?
- O'zga millat vakillari bilan tenglikda, hamkorlikda yashashning asosida sabr toqat, insof, adolatlilik, mehribonlik, matonat, andishilik, hurmat, farosatlilik kabi fazilatlar yotadi, deb hisoblaysizmi?
- Jamoatchilik fikrini hayotingizda muhim deb, unga e'tibor berasizmi?
- O'o'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik munosabatlariga aralashib, unga ijobiy qaraysizmi?
- Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar qadrsizlanishi jamiyatida salbiy holatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi deb hisoblaysizmi?
- "O'zaro bog'liqlik va kelishuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muxtojlikdan holi eta oladilar" deb hisoblaysizmi?
- Davlatlararo, millatlararo va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlarida sabr-toqat asosiy o'ringa ega, deb hisoblaysizmi?
- Davlat tomonidan ishlab chiqarilgan qonun-qoidalar, qarorlarni, ramzlarni doimo hurmat qilaman.
- Mehr-oqibat, sabr, olijanoblik kabi xislatlar aynan o'zbek xalqida kuchli mujassamlashgan deb hisoblayman.

Agar kattalarda umumiy mohiyatga ega sabr-toqat, mehmondo'stlik, kengfe'llik fazilatlarini bo'rtib namoyon bo'lsa, yoshlarda bu ko'rsatkichlarga qaraganda manfaatli hamkorlik, aniq mo'ljall-rejalar doirasida birlashish xususiyatlariga moyillik yorqinroq namoyon bo'ladi.

Tolerantlikning murosachilik va hamkorlik xususiyati mamlakat ichki hayotida ham, tashqi siyosatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Murosasozlik rasmiy talab, qasam, murosasizlikni qat'iy taqiqlashga aylanadi. Shu joydan siyosatga o'tish yuz beradi. Tolerantlik talabi birinchi galda shaxsning o'ziga nisbatan qo'llanadi, chunki o'z maslak-qarashlaringizni himoya qilishingiz shart. Shu asnoda, tolerantlik his-tuyg'ular jarayonida emas, izchil fikrlash natijasida, nafaqat ma'naviyat, balki huquq doirasida shakllanib boradi. Jumladan, odamlar mamlakat fuqarolari o'rtasidagi insoniy munosabatlar qandahalik iliq bo'lsa, xalq va umumdavlat manfaatlarini yo'lida birlashib, muammolarni hal etishda yakdil faoliyat ko'rsatsa, vazifalar oldida mas'uliyati chuqur his qilinsa, tolerantlikning mamlakat ichki hayotida amal qilishi uchun shart-sharoit yaxshilanadi.

Tolerantlikning tashqi siyosatdagi ko'rinishi bu davlat tomonidan, mamlakat rahbariyatining dunyo muammolarini hal etishdagi amaliy ishtiroki va faoliyatida aks etadi. Prezident Islom Karimovning bu boradagi faoliyatida, ayniqsa, ushbu jihatlar e'tiborni tortadi:

- har qanday mojaroli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, muzokaralar yo'li bilan natijalarga erishish, fikr almashish va tomonlar uchun o'zaro manfaatli bo'lgan xulosalarga kelishish;

- har qanday zo'ravonlikka, tazyiq va kuch ishlatishlarga qarshi kuch ishlatish emas, balki, jaholatga qarshi ma'rifat yo'li tamoyilini qo'llash.

O'zbekiston rahbariyatining xalqaro maydonda olib borayotgan siyosati hozirgi zamon jahon demokratik harakatlarining ilg'or tajribalariga mos keladi. Bu yo'l har qanday zo'ravonlik va kuch ishlatishni rad etish bilan birga, jahon siyosati madaniyatini oshirishga da'vat etish orqali siyosatga demokratik tamoyillarni olib kirishning o'zbekona yo'lidir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tmoqchimizki, bugun O'zbekiston xalqi ulug' ajdodlarning an'analarini, urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o'z qo'lga olib, qaddini rostlab, el-yurtimizda osoyishtalik-barqarorlikni, millatlararo ahillik, hamkorlik, tenglik va fuqarolar totuvligini avaylab-asrab, yangi tarixiy sharoitda kelajagini qurmoqda, milliy davlatchiligini tiklamoqda. O'zbekiston davlatining bu harakati uning Qomusida ham yaqqol aks etgan. Konstitutsiya umumiy

mazmunidan tortib oddiy bir bandiga qadar, Xo‘ja Ahmad Yassaviy bobomiz davrida, buyuk Amir Temur zamonida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi. Shu ko‘hna zamin odamlari ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag‘rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug‘ xislatlar bu muborak hujjatdan munosib o‘rin olgan.

Xullas, bizning milliy xususiyatlarimiz, bevosita tolerantlik ham, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shgan turli millat vakillariga hurmat bilan qarash, shuningdek, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar xalqimizda azaldan mujassam. Tolerantlikka xos bo‘lgan sabr-toqat mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo, iffat kabi fazilatlar, bag‘rikenglik mehimondo‘stlik, oqko‘ngillik kabi xususiyatlar haqida uzoq gapirish mumkin.

Demak, bugungi kunda milliy mafkura konsepsiyasini yaratishida tolerantlikka kengroq e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir.

O'ZBEK TOLERANTLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSIY MOHIYATI

Kishilik rivoji turli xalqlarning o'zaro aloqalaridagi yaqinlik, bog'liqlik, hamkorlikning muntazamligiga ko'ra amalga oshib kelgan. O'zaro munosabatlar esa aloqalar mazmunida oqilona me'yor, muvozanatning nechog'li saqlanishiga har jihatdan bog'liq bo'lgan. Xalqlararo va muayyan millat tarkibida o'zaro munosabatlarni boshqarishda tolerantlik hodisasi hamisha muhim rol o'ynaydi.

Tolerantlik hodisasining etnoregional muhitda amal qilishida muayyan yerlik xalqlarning urf-odatlarini, an'ana va marosimlarining roli kattadir.

Shuningdek, tolerantlik hodisasining ijtimoiy-siyosiy muhitdagi o'rnini belgilashda, milliy ongini mustahkamlashda milliy axloqiy fazilatlardan samarali foydalana bilish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan insonlarning dunyoqarashini, ularga xos o'zaro munosabatlar, xususiyatlarni, mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarni o'ziga asos qilib olgan.

O'zbek xalqining tolerantligi uning quyidagi fazilatlarida namoyon bo'ladi. Bu:

- o'zbeklar tolerantligi bir jihatdan qadimgi turkiy negizlarga tayanishi, jo'g'rofiy nuqtai-nazar bilan qaralganda, uning ko'hna zamonlardan kenglik, cheksizlik, ulug'liklardan iborat makonlarda istiqomat qilib kelganligi, ana shu kenglik, ulug'lik, sarhadlar benihoyaligi, xalq fe'l-atvorida o'z ifodasini muhrlaganligi bilan izohlanadi;

- Buyuk ipak yo'lida istiqomat qilib kelganligi Sharq va g'arbni bog'lab turuvchi muhim bo'g'in sifatida yuksak ma'naviyat, mehmondo'stlik, bag'rikenglik xususiyatlarining katta ijtimoiy ehtiyoj bo'lib kelganligi;

- o'zbeklarning barcha sharq xalqlariga yaqinligida, ular bilan o'zaro ko'p ming yillik yaqin etnik madaniy munosabatlarida;

- o'zbeklarning o'zida sharqona mustaqil ma'naviy taraqqiyot yo'lining boshqa qardosh madaniyatlar bilan uzviy rivojlanishida;

- o'zbeklarning islom madaniyatini va ma'rifatparvarligini o'ziga xos idrok etishida va ravnaq toptirishida;

- o'zbeklarning qadimdan Ovro'po va Osiyo mamlakatlari bilan mustahkam aloqa bog'lashga intilib kelganligida, ularning iqtisodiyoti, siyosati va madaniyati bilan yaqin hamkorligida;

- o'zbeklarning ochiqligiyu mehmondo'stligida, xoh o'z

mamlakati ichida, xoh tashqarisida barcha millat va elatlar, din vakillari bilan teng huquqli hamkorlikka moyilligida;

- o'zbeklarning o'z kuchiga ishonishida, mehnatsevarligida, tinib-tinchimasligida, ishchanligida, va tashabbuskorligida, xalqqa, Vatanga sadoqatida, fidoyiligida, jonkuyarligida namoyon bo'ladi.

Bu fazilatlar o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy ongning shakllanishiga ham ta'sir etadi.

Zero, yetuk milliy ong va milliy g'oya zaminidagina milliv tolerantlik baraaror bo'lishi, millatning yaxlit, uyushgan ijtimoiy kuchi sifatida muayyan makon doirasida amal qilishi mumkin.

Binobarin, o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, tolerantlikning ijtimoiy muhitdagi o'rnini belgilashda quyidagi omillar doimiy ta'sir ko'rsatib turadi:

- axloq;
- an'analar, odatlar, timsollar;
- jamoatchilik fikri;
- turmush tarzi;
- mehnatning turlari, ishlab chiqarish usullari ta'siri;
- din;
- jamiyatning intellektual-aqliy darajasi;
- ijtimoiy tabaqalashuv tizimi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ijtimoiy muhit ta'siri ierarxiyasini belgilashda turli tabaqa vakillarining nuqtai nazarlari har xil bo'lib, umumiy o'lchov kriteriyalarini belgilashda muayyan qiyinchiliklar tug'dirdi. Tadqiqot bir necha bosqichdan iborat bo'lib, turli yoshdagi, xususan, 17-24, 25-35, 36-50, 51-65 yosh bosqichlaridan iborat ijtimoiy guruhlarni tashkil etgan edi. Respondentlarning nisbatan yosh vakillari ya'ni 17-24 va 25-35 yoshllar tolerantlikning amal qilishi shartlari sifatida mehnat shart-sharoitlari, aholi turmush darajasining holati, xalqning umumiy daromadi, moddiy-moliyaviy imkoniyatlarini ko'rsatadilar (62 foiz). Ijtimoiy tabaqalashuv tizimida "tolerantlikka ayniqsa moyil" sotsial guruhlardan dehqonlar – 57 foiz, ayollar – 53 foiz, nafaqaxo'rlar – 72 foizni belgilaydilar.

Yoshlar tolerantlik hodisasining aholi intellektual darajasi, ilmiy-madaniy saviyasi, shaxsning bozor munosabatlari ta'sirida individuallashuv omillari ta'sirida ijobiy o'zgarishga yuz tutishini belgilaydilar. U – 58 foizni tashkil etadi. Ammo, anketadagi oldingi savolga nazorat savoli sifatida berilgan "Ong darajasining yuqoriligi tolerantlikka hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadimi?" - degan savolga 64 foiz tasdiqlovchi javob bo'ldi. Bu esa tolerantlikka nisbatan yoshlar o'zlariga

xos mohiyatni hali to'la anglamasdan ish tutishga moyilligini isbotlaydi. Shu bois yoshlar javoblarini mutlaq ko'rsatkich sifatida e'tiborda saqlagan holda, 36-50 va katta yoshdagi respodentlar javoblarini tahlil etishga harakat qilamiz.

O'rta yoshlilar tolerantlik ko'proq quyidagilarga bog'liq deb ta'kidlaydilar:

- xalq an'analariga — 46 foiz;
- jamoatchilik fikriga — 42 foiz.

Katta yoshli respodentlar esa, 36 foizi — an'analar, 30 foizi — jamoatchilik fikri muhim omil ekanligini qayd etgan holda, 68 foiz din, 76 foiz esa axloq, tarbiya kabi omillarning ustuvor ekanligini ta'kidlaydilar. 53 foiz katta yoshli respodentlar bozor munosabatlari sababli, shaxsning individuallashuvi, tolerantlik xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini haqli ravishda ko'rsatadilar. (So'rov-tadqiqot davomida respodentlardan tolerantlikka ta'sir omillari ro'yxatidan faqat eng muhim 4 ko'rsatkichni belgilash so'ralgan edi.)

Tolerantlikni ta'minlovchi omillar milliy o'zlikni anglashning shakllanishida va rivojlanishida muhim o'rinni tashkil etadi. Ular milliy o'zlikni anglashda asosiy manba hisoblanadi va ular millatning boshqa xalqlar bilan aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Milliy o'zligini anglashga noto'g'ri yondashish jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy nomuvofiqliklarni vujudga keltirdi. Natijada, jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, madaniy sohalarining rivojlanishi sekinlashdi, milliy ma'naviyat boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Ayni vaqtda xalqlarning sabr-kosasi to'lib borayotganligi tobora yaqqolroq ayon bo'la boshladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatdiki, milliy o'zligini angelayotgan xalqlarning mustaqillikka, demokratiyaga tomon qilayotgan harakatlarini hech qanday kuch to'sib qola olmaydi. Shu nuqtai nazardan bu masala haqidagi N.Drobijevaning fikriga qo'shilmay ilojimiz yo'q: "Milliy o'zligini anglash, - degan edi u, - tarixiy xotirani o'rganishdangina iborat bo'lib qolmay, balki qadriyatlarga, madaniyatga, tarixga, milliy manfaatlarga emosional kuyinishdir".³⁵

O'zlikni anglashning muhim shartlaridan biri ham xalqqa, vatanga foydasi tegadigan miqyosda fikrlash va mehnat qilishdir. Xalq manfaatini himoya qilgan kishigina baxtli bo'ladi. Uning nomini xalq abadiy yodda tutadi. "Yaxshidan bog' qoladi", degan maqol ham bejiz aytilmagan. "O'zining sabr-toqatga bag'ishlangan traktatida Volter shunday deb yozgandi: "...Men Senga — butun jonzotlarni, dunyolar va davrlarni

³⁵Агамуродов С. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновление общества.-1992. – Стр. 28.

yaratgan tangriga murojaat qilaman: bizning omonat badanlarimizning ustidagi liboslar o'rtasidagi, talablarimizga javob berolmaydigan tillarimiz, axmoqona odatlarimiz o'rtasidagi, mukammal bo'lmagan qonunlarimiz, barkamol bo'lmagan fikrlarimiz o'rtasidagi, hayotimizning hamma tomonlari o'rtasidagi arziyas farqlar biz uchun juda muhim ko'rinadi, lekin ular Sening oldingda baravar bo'lishlariga ijozat qil. Sen marhamat qilginki, odamlar deb ataluvchi zarralar o'rtasidagi mayda-chuyda farqlar nisbatan adovat va ta'qibga olib kelmasin". Bu so'zlar bitilganiga 200 yildan ortiqroq vaqt o'tdi, lekin Uyg'onish davrining faylasufi iltijosi insoniyat tarixida hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas".³⁶

Yolg'iz o'z manfaati va ehtiyojlari bilan band bo'lgan, tirikchilik tashvishlaridan zir yugurib, ulardan baland ko'tarila olmagan kimsa o'z insoniy mohiyatini anglash yo'lida o'ziga parda bo'ladi. Jaloliddin Rumiyning so'zlarini eslaylik: "Sen hamma narsani unutishing mumkin, yolg'iz bir narsani - nechun dunyoga kelgansan, shuni unutmang bas. O'zingni arzon sotmagaysan, illo bahoying baland."³⁷ Yoki "Sabrli bo'l, shunda yutasan", "Sabrning tagi oltin" kabi xalq maqollari insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun xizmat qilgan.³⁸

Tolerantlik milliy tarbiya bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Chunki, milliy tarbiya makondagi mavhumlikka barham beradi va shu bilan birga, milliy madaniy jipslikni, birlikni ta'minlovchi etnik, milliy ma'lumotlarni sinxron va diaxron shaklda avloddan-avlodga o'tkazadi. Shunday qilib, faqat shu millatgagina aloqador bo'lgan o'ziga xos tarbiyaviy sistema ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini ta'minlaydi. Bular esa tolerantlikning tarkibiy jihatlardir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har bir mamlakatda olib borilajak tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining bir qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosatda tarbiya siyosati ham umumbashariy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tashkil etilmog'i lozim. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlar uchun bir xil ahamiyatlidir. Butun bashariyat boshiga, butun insoniyat sivilizatsiyasi kelajagiga xavf solib turgan yadrovii urush xavfi, ekologik, energetik xavf-xatarlar hamma uchun birday talafot keltirishi mumkin. Lekin bu umumbashariy birlik turlicha tushunilmoqda. Ya'ni, ayrim yevropaparast

³⁶ Федерико Майор. Келажак хотираси. -Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б. 172.

³⁷ Фиш О.Г. Жалолиддин Румий. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. - Б. 129.

³⁸Жумабоев И. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари. -Т.: Ўзбекистон, 1980. - Б. 20.

Jandiyatshunoslar va yevropasentriзм muxuslari "umumbashariylik" tushunchasini "evropalashganlik" sifatida umumbashariy sivilizatsiyani yevropa sivilizatsiyasi sifatida talqin va tashviq qilmoqdalar. Biz tarafdori bo'lgan umumbashariy ma'naviy birlik g'oyasi, umumbashariy ma'naviy bir xillashuv emas, balki, umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan piyuralistik yondashuvlar majmuidan iborat xilma-xillikdir. Shuningdek, tolerantlik insoniyatning sivilizatsiya qarshisidagi xavf-xalokatlarga qarshi kurashuvchi "millatlararo birligi" bo'lmog'i kerak. Chunki shaxs o'zining muayyan millatga, madaniyatga mansubligini anglamasdan turib, o'zining umuminsoniy madaniyatga mansubligini anglay olmaydi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'luvchi yuzlab ajoyib insoniy, axloqiy fazilatlar haqidagi so'zlar mavjud. Bu so'zlar milliy axloq, odobimizning bir vaqtlar yuksak cho'qqiga ko'tarilganligining dalilidir. Masalan, "sabr-andisha", "nazokat", "tavoze", "hayo", "diyonat", "vafu", "sadoqat", "vijdon", "iymon", "oriyat" va hokazo so'zlar xalqimizda mavjud fazilatlar haqidagi xabarlar sifatida turmushda keng qo'llanilgan. Lekin millatimiz tarixining keyingi asrida sodir bo'lgan mustamlakachilik davrida xalqimizning nutqida yuqoridagi so'zlar faol iste'moldan chiqib qoldi. Natijada, yosh avlod sabrlilik, iymonlilik, xushtavozelik, diyonathilik, vijdoniylik, oriyatlilikning asl namunalarini ko'rishdan benasib qoldilar. Bu so'zlar ma'nosini tushuntirish bilan ham o'quvchilarda yuqoridagi fazilatlariga ishonchni shakllantirib bo'lmaydi. Chunki, buyuk italyan mutafakkiri Leonardo da Vinchi aytganidek, "Odam o'zi qalban ko'ra olmagan narsani kuchli seva olmaydi".³⁹ Ana shuning uchun ham yuqoridagi fazilatlarini maxsus tashkil qiluvchi vaziyatlarda, tarbiyaviy soatlarda o'quvchilarga ko'rsatishimiz (masalan, xushtavozelik qanday namoyon bo'ladi), XX asr oxirida yashayotgan kishining diyonati qanday namoyon bo'lishini uqtirish, balki ko'rsatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu milliy o'z-o'zini anglash bilan bog'liq jarayonlarni tezlashtiradi, ularning shaxsiy fazilatga aylanishiga asos bo'lib xizmat qiladi, o'zbek tilining tarixini, manfaatlarini, istiqbollari, ma'naviyatini to'g'ri tushunishga ehtiyojini oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shundan guvohlik beradiki, anketada keltirilgan "XXI asr kishisining shaxsiy fazilatlarida qanday fazilatlar bo'lishi shart, deb hisoblaysiz" degan savolga 70 foiz talaba yuqorida keltirilgan sabrlilik, xushtavozelik, vijdoniylik, iymonlilik kabi fazilatlar bo'lishi shart deb javob berishdi. 20 foiz talaba unchalik shart emas, 10 foiz talaba esa shart emas deb javob berishdi.

³⁹ Леонардо Да Винчи. Избранные произведения. -М.: Наука, 1970. - Стр. 89.

Ibtisodiy jamoa tuzumigayoq kishilarning yashash sharoitlari, mehnatning jamoa manfaatlari asosida tashkil etilishi kishilar o'rtasida sabr-qanoatli, bir-biriga yordamlashish, hamkorlik qilish, birgalashib mehnat qilish singari munosabatlarni keltirib chiqardi. Oilaviy munosabatlar ham bola tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan mas"uliyat zaminida sabr, mehr-muhabbat, rahm-shafqat, bir-biriga sadoqat singari ma'naviy fazilatlarini keltirib chiqaradiki, ular tolerantlikning shakllanishidagi muhim bosqichni tashkil etadi.

Biz mas"uliyat so'zini tilga oldik. Chunki bugungi kunda nima qilmasin "mayli" deb indamay yashaydigan tolerantli insonni emas, balki o'zidagi ma'suliyatni his qiladigan tolerantli insonni shakllantirishimiz lozim. Taassufki, xalqimizning ayrim vakillariga xos bo'lgan oxirgi natija bo'yicha hisob berishga mas"uliyatsiz yondashadigan "maylichilik" xususiyatini ham tolerantlikka yo'yish to'g'ri emas. Tolerantlik anglangan idrok, ong bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Mazkur ijtimoiy hodisaning tarkibiy qismlari mas"uliyat, idrok, bag'rikenglik va boshqa tizimiy belgilarga bog'liq ekanligini inobatga olib uni boshqariluvchi hodisa sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida eslatilgan XXI asr kishisi fazilatlar mavzuida o'tkazilgan anketa so'rovida talabalarning 44 foizi o'zlarida mas"uliyat hissini takomillashtirish kerakligini, 38 foizi esa, vazifa va intizom xususiyatlarining talab darajasida emasligini 18 foiz talabalar va'da va ijro borasida o'z xarakterlari ustida ishlashlari lozimligini tan olib qayd etdilar. Tolerantlik anglanmagan jarayon bo'lmasdan o'z mohiyati zaminida yuksak insoniylikni ifodalaydi.

Umuman aytganda, tolerantlik - yashash tarzi bir-biri bilan iqtisodiy ma'naviy aloqalar nuqtai nazaridan bog'liq bo'lgan odamlarning o'zaro munosabatlaridir. Ya'ni, tolerantlik asrlar davomida o'zbek xalqining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'layotgan o'zaro bog'liqlik tuyg'ularini ifoda qiluvchi ma'naviy hodisadir.

"Odamlarga nisbatan, - deb ta'kidlaydi Forobiy, - ularni birlashtirib turuvchi ibtido insoniylikdir".⁴⁰ Darhaqiqat, insoniylik, ya'ni insonlarning bir-biriga mehr-oqibati, hurmati, yaxshi so'zlari bo'lmasdan edi, odamlar ham hayvonlar singari tarqoq holda yashagan bo'lur edi.

"Har bir kishidan qolgan yaxshilik, uning umuminsoniy ma'naviy madaniyatga qo'shgan hissasidir. Inson, insoniyat o'z yaxshiliklari bilan

⁴⁰Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Халқ мероси, 1993. – Б. 186.

mangudir”.⁴¹

Tolerantlik “o‘zing uchun o‘l vetim”. degan fikrni emas, balki ko‘pchilikning birligini, ahilligini, qo‘lni-qo‘lga berib, bir yoqadan bosh chiqarib ishlashni bildiradi. Har qanday sharoitda ham inson yakka o‘zi hech narsa qila olmaydi. Qachonki u ko‘pchilik bilan birlashib faoliyat ko‘rsatsagina, orzu qilgan narsalarini amalga oshira oladi. Odamlar bir-birlariga yordam qo‘llarini cho‘z gandagina, insoniylik, mehr-muhabbat ma‘naviyati keng quloch yoyadi.

“Baxtga erishish uchun barcha shaharlarga o‘zaro yordam beruvchi xalq fazilatli, yetuk xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar butun yer yuzi fazilatli, yetuk bo‘ladi”.⁴²

Yer yuzidagi xalqlar o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlash masalasi katta ahamiyat kasb etgan hozirgi sharoitda bu fikrlar yanada dolzarbroq, yanada teranroq mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, o‘zaro yordamlashish xususiyatlari, kishilararo hamkorlik insonni komillik sari yetaklaydi. Komillik tushunchasi boshqalar dardi-tashvishiga hamdardlik fazilatlarini bilan uyg‘undir.

Tolerantlikning komillik tizimida tutgan o‘rni xususida Beruniy shunday deydi: “Agar u odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatiga chidam bersa, ziqnalik qilmasdan boshqalar mahrum bo‘lgan, o‘zida bor narsalardan birovlarga bersa, mana bunday odam shunday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi, u o‘zining hallmligi, muloyimligi, chidamliligi, kamtarligi tufayli, ulug‘vorligi bilan tanilib, garchi u shu martabaga, uning ahlidan bo‘lmasa ham, oliy darajaga ko‘tariladi. U nasl-nasab jihatidan emas, balki haqli ravishda hurmat qilinadi”.⁴³ Sizning nazarinizda, tolerantlikka quyidagi fazilatlardan qaysi biri ko‘proq mos keladi degan savolimizga respodentlar shunday javob berdilar: (Respodentlar taklif etilgan ro‘yxatda faqat 3 punktida belgilashlari ko‘rsatilgan edi.)

Kamsuqumlik	— 36%
Kamtarlik	- 54%
Hayo-ibo	- 26%
Tortinchoqlik	— 22%
O‘zgalarga yordam	— 46%
Mehmondo‘stlik	— 52%

⁴¹Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Т.: -Фан, - Б. 264.

⁴²Абу наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Халқ мероси, 1993. — Б. 187.

⁴³Беруний Абу Райхон. Минерология. -М.: Наука, 1963. — Б. 202.

Xushmuomalalik	– 54%
Uyatchanlik	– 26%
Istihola	– 28%
Andisha	– 34%
Mehnatkashlik	– 30%
Jasorat	– 12%
Mardlik	– 26%
Shijoat	– 10%

Shu narsa e'tiborga loyiqki, respodentlar tolerantlik harakatchan fazilatlariga ko'proq mansubligini, ya'ni "o'zgalarga yordam", "mehmondo'stlik", "xushmuomalalilik", "kamtarlik"ni qayd etganlari holda "uyatchanlik", "tortinchoqlik", "xayo-ibo", "istihola" singari passiv fazilatlarini kamroq nisbatda qayd etadilar.

Jahonda tinchlikni mustahkamlash xalqlarning ahil, totuv yashashini ta'minlashda ham tolerantlik muhim ahamiyatga ega. Tinch-totuv yashash, avvalo, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning milliy mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish, urush qilmaslik kabi qoidalarni o'z ichiga oladi. Tinch-totuv yashash, davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy jihatlaridan biridir.

Tinch-totuv yashash orqali tolerantlik omillarini amalga oshirishda umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlar to'la hisobga olinishi lozimdir. Hozirgi vaqtda barcha davlatlar umuminsoniy manfaatlar ustunligini hisobga olmay, turib tinch-totuv yashash yo'lida muvaffaqiyatga erishishi mumkin emas.

Tinch-totuv yashashning yangicha fikrlash konsepsiyasi mavjud sivosiy vaziyatni to'g'ri hisobga oladi, u tolerantlik omillari va vuksak ahloqiy mezonlarga, demokratizmga asoslangan bo'lib, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, mehr-shafqat va g'amho'rlik masalalarini birinchi o'ringa qo'vadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida milliy tolerantlik va umuminsoniy qadriyatlar mutanosiblikda va ularga qat'iy amal qilgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bormoqda. Xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadigan mamlakatimiz asosiy maqsadlari: tinchlik, quolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan holi qilish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal qilishda tazyiq o'tkazmaslik, tinch yo'l - konsensus siyosatini qo'llash, insoniyatning jahonshumul muammolarini hal etishda davlatlararo hamkorlik va xalqlar birdamligini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Xalqimizning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan andishalilik,

mehmondo'stlik, hurmat-izzat, g'amho'rlik, o'zaro yordam, hashar, oilada bir-biriga ko'maklashish, himmatlilik fazilatlarini, oila buzilishiga yo'l qo'ymaslik, musibat kunlarida beg'araz hamdardlik, yelkadoshlik, to'y marosimlarida qo'l qovushtirib o'tirmaslik kabi udumlar o'zbek xalqining tolerantlik xususiyatining asosini belgilab beradi. "Tolerantlik o'zaro munosabatlarning qaysi darajasida ko'proq namoyon bo'ladi?" degan savolga aksariyat talabalar quyidagi tartibda javob berganlar:

Boshqa millatlarga bo'lgan munosabatda – 72%

O'z xalqiga bo'lgan munosabatda – 38%

To'y va boshqa tantanalarda – 46%

Musibatli kunlarda – 54%

Yaqin kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liq muammoviy davrlarida – 28%

Yaqin kishilarning salomatligi bilan bog'liq muammoviy vaziyatlarda – 58%

Majlislar va anjumanlarda – 54%

Xizmat safarlarida – 44%

Oilaviy munosabatlarda – 26%

Javoblar xalqimizning hamdard bo'lish fazilati inson boshiga musibat tushganda, boshqa xalqlarga munosabatda, salomatligi yomonlashganda, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'lishini, xizmat safarlari hamda majlisu anjumanlarda ham tolerantlik fazilatlarini tez-tez ifoda bo'lishini ko'rsatadi. Ayni chog'da kishining mehnat faoliyatida muayyan uzilishlar ro'y bergan hollarda, maishiy holatlarda tolerantlikning nisbatan kamroq ifoda bo'lishi respodentlar tomonidan qayd etildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 95 foiz aholi "Yaqin qo'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik munosabatlariga qanday qaraysiz?" degan savolga quyidagicha javob berishgan: Respodentlar quni-qo'shnichilik va qarindosh-urug'chilik munosabatlari tahliliga o'zaro nisbatda qiyosiy yondashdilar. Agar qishloq hududlarida qarindosh-urug'chilik va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari o'rtasida jiddiy tafovutlar bo'lmasa, ya'ni qo'shni ayni vaqtda qarindosh ham ekanligi e'tiborga olinsa, qishloq respodentlarining qo'shnilarga tolerant munosabat zohir etishlari – 72 foiz va qarindoshlarga tolerantlik namoyon qilish foizi 74 bo'lgan qaydlari ortiqcha izohiga ehtiyoj sezmaydi. Shahar respodentlari va shahar tipidagi, ayniqsa, sanoatlashgan hududlarda (Andijon, Asaka, Marhamat) respodentlar qo'shnichilik munosabatlariga ko'proq 78 foiz moyillik bildiradilar.

"Shunga aminmanki, - deb ta'kidlaydi I.Karimov, - odam birgina

yaxshi soʻz tufayli, majoziy qilib aytganda, togʻni talqon qilishi mumkin. Afsuski, biz keyingi vaqtda odamlarga bunday munosabatda boʻlishni deyarli unutib qoʻydik. Chunki odamga ishonch uni ulugʻlaydi, oʻz kuchiga ishonch bagʻishlaydi. Boshqa tomondan, ishonchsizlik xolisona munosabatda boʻlmaslik, odamlarning xafsalasini pir qiladi va shu tufayli, biz qanchadan qancha isteʼdodli kishilarni boy bermoqdamiz”.⁴⁴

Oʻzbekiston istiqloлга erishishi tufayli yoshlarimizni milliy ruhda axloqli, odobli, mehr-shafqatli, sabr-qanoatli qilib tarbiyalash kabi masalalarga katta eʼtibor berilmoqda. Chunki, maʼnaviy kamol topgan insonlargina barkamol jamivat qurishlari mumkin. Bulardan tashqari, bizning xalqimizda azaldan mavjud boʻlgan qoʻni-qoʻshnichilik va mahalladoshlar bilan yaxshi muomalada boʻlish ham tolerantlikning bir koʻrinishi boʻlib, ular bizning xalqimizda yoshlarimizni tarbiyalash, ularda insoniy fazilatlarini qaror toptirishda muhim tarbiya oʻchogʻi sifatida katta rol oʻynab kelgan. Maʼlumki, oila munosabatlarida ham totalitar tuzum sharoitida juda koʻp buzilishlar, salbiy holatlar paydo boʻlib xalqimizga xos milliy anʼanalar yoʻqolib borayotgan edi. Bugungi kunda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni tezroq bartaraf etib, bu sohadagi xalqimiz saqlab kelayotgan progressiv anʼana va urf-odatlarini qayta tiklab ularni hayotga tadbiiq qilishimiz lozim.

Qoʻni-qoʻshnichilik insonlarning bir-birlari bilan oʻzaro yaxshi muomilada boʻlishi, bir-birlarini izzat-hurmat qilishi va bir-birlariga oʻzaro yordam koʻrsatuvchi munosabatlardir. Qoʻni-qoʻshnichilik munosabatlari kishilar oʻrtasidagi taʼlim-tarbiya, odob-ahloq, hamkorlik va hamdardlik zaminida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Oʻtmishda ota-bobolarimiz ham oʻzlarining eng yaqin kishilaridan biri deb qoʻshnilarini hisoblaganlar. Shuning uchun xalq maqollarida: “Gilam sotsang qoʻshningga sot, bir chekkasida oʻzing oʻtirasan”, “Qoʻshning tinch - sen tinch”, “Uzoq qarindoshdan yaqin qoʻshni afzal” degan fikrlar bekorga aytilmagan.

Oʻtkazilgan tadqiqotimiz natijasi shundan dalolat beradiki, 30 yoshdan 50 yoshgacha boʻlgan aholining 90 foizi “Oʻzbek milliy qadriyatlarini (anʼanalar, udumlar, rasm- rusumlar) bugungi kunda hayotga yanada keng tadbiiq etishga qanday qaraysiz?” degan savolga ijobiy javob berishgan. Yaʼni: Xalqimiz milliy qadriyatlari bugungi kun maʼnaviy hayotimizning asosini belgilab beradi – 55%, anʼanalar, rasm-rusmlar, urf-odatlarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyati katta –

⁴⁴Каримов И.А. Ўзбекистон ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 265.

36%, milliy qadriyatlarimizning qaytadan tiklanishi kelajak avlod uchun katta ahamiyatga ega – 41%.

Tolerantlikning shaxsga ishonch va umid ko'zi bilan qarashi uni kishilar tashvishiga jonkuyar, beva-bechora, yetim-esirga mehribon, xalq taqdiriga hamdard ijtimoiy kuch sifatida shakllanishiga imkon tug'diradi. Bu jihatdan tolerantlik jamiyat ma'naviyati va muayyan tuzum mafkurasining real, ta'sirchan omili sifatida kishilar ongida umuminsoniy ahloq normalarini qaror toptirishda qudratli kuchdir.

Hozirgi g'arb demokratiyasining eng muhim talablaridan biri - insonlar o'rtasida imkoniy tenglikka erishish bo'lsa, bu talabga Sharq xalqlarida, xususan Movarounnahrda azaldan rioya etilib kelinayotganligi Oллоh oldida hammaning baravarligi, istisno tarzda faqat ilm-ma'rifat egalarining ustun mavqe egallashlari, kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili doim amal qilishiga amin bo'lamiz.

Xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlab o'tmoqchimiz. Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlar davomida bir-biri bilan yaqindan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamkorlik aloqalari muhitida yashab kelganlar. Ularning turmush tarzi, tili, madaniyati, dini, urf-odatları bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab mintaqaviy ma'naviy fazilatlarıning shakllanishiga shart-sharoit tug'dirib keldi.

Tolerantlik tamoyillarini davlat siyosati darajasiga yuksaltirgan O'zbekiston, barcha qo'shni va chet el davlatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatdor mustahkam aloqalar o'rnatish va yaqin qo'shnichilik, o'zaro hamkorlik qilish tarafdoridir.

O'ZBEK TOLERANTLIGINING ISTIQLOL DAVRIDA NAMOYON BO'LISH ISTIQLLARI

Insonlararo munosabatlarning ustivorligi kuchli jamoatchilik fikri, tafakkur tarzidagi hamkorona bag'rikenglik sharq umumsivilizatsion jarayonlarining mohiyatini tashkil etadi. Sfiarq xalqlari jamiyatlari uchun xos xususiyatlar ularning turmush tarzi, real hayotida o'z ifodasini topgan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda, an'analarda, diniy aqidalarda, turmush tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxsning individual mustaqilligini ta'minlashga yo'naltirilgan g'arb kishisidan farq qilib, Sharq kishisi jamoaga ma'naviy bog'liqlikni o'zida ifoda etadi. Tolerantlik hodisasi jamoa bilan hamohanglik tizimida muhim bo'g'inni tashkil etadi. Kishining o'z-o'zini anglashi, manfaatleri va qadrini bilish hissi ham jamoaning boshqa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari manfaatleri mantig'i bilan shartlangandir. Xalqimiz vakili u qanday mavqe, martaba egallashidan qat'iy nazar atrofdegilarning munosabatiga, fikriga qarab ish qiladi, o'zi bilan jamoa o'rtasidagi mutanosiblikni buzmaslikka harakat qiladi. Ma'lumki, xalqimizda atrofdegilarning manfaatlariga qarshi ish qilish, umum tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalar, amaldagi ijtimoiy me'yorlarga xilof ravishda ish ko'rish qoralanadi, jamiyat bilan shaxs o'rtasida ziddiyat vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Agar g'arb kishisi o'z xatti-harakatlarida inson huquqlarini muayyan me'yorlarga solib turuvchi qonun-qoidalar doirasidan chiqmaslikka harakat qilsa, Sharq kishisi amaldagi rasmiy qonun-qoidalarga rioya etishdan tashqari jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos tartibda o'rnatilgan me'yorlariga ham amal qiladi, shaxsning ushbu me'yorlar doirasidan chiqishi jamoa bilan uning o'rtasidagi munosabatlar mazmunining buzilishiga sabab bo'ladi. Ana shunday o'rnatilgan me'yorlarga rioya etishda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasi, shu jumladan, uning fe'l-atvoridagi tolerantlik xususiyati katta rol o'ynaydi.

O'zbek xalqi boshqa millatlar va elatlar singari uzoq tarixiy-madaniy tajriba natijasida tarkib topgan ijtimoiy etnik birlikdir. O'zbeklar etnik tarkibining murakkabligi, turli urug'-aymoqlarga tarmoqlanib ketganligi jamiyat taraqqiyotining bugungi manzarasida muhim rol o'ynamasa-da, biroq u tarixiy voqealarning guvohlik berishiga ko'ra ijtimoiy tuzumga yo

⁴⁵Дониёров Х. Ёзбек халқининг шажара ва шевалари.-Т.: Фан, 1986. – Б. 40-41.

salbiy, yo ijobiy ta'sir etib kelgan. O'zbek xalqi fazilatlarini, ayniqsa, to'y va ma'rakalarda va turmush tarzining boshqa tomonlarida namoyon bo'ladi.⁴⁵

Biroq, istiqloqligacha ijtimoiy fanlar tizimida milliy xarakter o'ziga xosligi, o'zbeklarga xos bo'lgan jamoaviylik va tolerantlik omillarining tarixiy taraqqiyotda tutadigan o'rniga yetarlicha ahamiyat berilmay kelindi, ayrim hollarda esa, u asossiz ravishda inkor etildi.

Milliy taraqqiyot talablari o'zbek xalqi axloqi, xarakteri mohiyatida o'zak ahamiyat kasb etuvchi jamoaviylik fazilatiga hamda bu fazilatning markazidagi tolerantlik hodisasiga ikki jihatdan ya'ni: bir tomondan, faoliyat, yaratuvchanlik, ijtimoiy faollik nuqtai nazaridan, hamda ikkinchi tomondan, urf-odatlar, axloq nuqtai nazaridan yondashish muhimdir. Albatta, tolerantlik siyosiy madaniyatda ham, mafkura borasida ham, har bir fuqaroning o'z individual siyosiy-g'oyaviy nuqtai-nazarini anglashi jarayonlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday hollarda tolerantlik jamiyatning umumiy fikr-qarashlari, intilishlariga hamohanglik, voqelikka ongli yondashish omili hamda o'ziga xos ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham o'zbek tolerantligining ushbu jihati, ya'ni, ijtimoiy-siyosiy voqelikka ongli yondashish hamda bu jarayonlarga faol ishtirok etish xususiyatini har tomonlama rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi tolerantligini ta'minlovchi omillar qatoriga sabr-toqat, o'zgani o'zi bilan teng va ba'zan ustun ko'rish, mehribonlik, boshqalar urf-odatlarini, dini va maslagiga toqat, iymon-e'tiqod, adolatlilik, hamkorlik, farosat, andisha, insof, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, hurmat, yelkadoshlik, hamdardlik, mehmondo'stlik, dilkashlik, kamtarlik, insonni izzatlash, e'zozlash kabi fazilatlarini kiritish mumkin.

Yoshlarning turli tabaqalari o'rtasida o'tkazilgan sosiologik tadqiqot natijalari yuqorida sanalgan omillarning yosh bo'yicha namoyon bo'lishining quyidagi tasnifiy holatini ifoda etadi.

1. Sabr-toqat, andishalilik fazilatlarini 16-19 yoshdagilarda: — 40 foiz, 20-25 yoshdagilarda esa 50 foiz, 26-30 yoshdagilarda: 65 foiz;

2. Boshqalar urf-odatlariga toqat ma'nosidagi tolerantlik: 16-19 yoshdagilarda — 35 foiz, 20-25 yoshdagilarda —45 foiz, 26-30 yoshdagilarda —60 foiz;

3. Etiqodiy farqlarga nisbatan tolerantlik, insof: 16-19 yoshdagilarda — 45 foiz, 20-25 yoshdagilarda — 60 foiz, 26-30 yoshdagilarda —75 foiz;

4. Mehribonlik, hurmatlilik, yelkadoshlik, hamdardlik: 16-19 yoshdagilarda — 48 foiz, 20-25 yoshdagilarda — 63 foiz, 26-30 yoshdagilarda — 75 foiz;


5. Adolatlilik, tenglikni ifodalovchi tolerantlik, hamkorlik, vatanparvarlik, sadoqat, matonat: 16-19 yoshdagilarda – 73 foiz, 20-25 yoshdagilarda – 78 foiz, 26-30 yoshdagilarda – 80 foiz;

6. Axloqiy farqlarga nisbatan tolerantlik: 16-19 yoshdagilarda – 58 foiz, 20-25 yoshdagilarda – 61 foiz, 26-30 yoshdagilarda – 65 foiz.

Sosiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra tolerantlikni ta‘minlashda uni tashkil etgan omillarning tutgan o‘rni quyidagicha ekanligi aniqlandi.

O‘zbek tolerantligining tarkibi va uni tashkil etuvchi omillar:


- O‘z manfaatini ustun qo‘ymaslik;
- Kamtarlik, kamsuqumlik;
- Mehribonlik, hamdardlik;
- Hurmatlilik;
- Iymon, e‘tiqod, insof;
- Hamkorlik, yelkadoshlik;
- Dilkashlik, insonni e‘zozlashda meyorlarga rioya etmaslik;
- Adolatlilik, tenglik.



- Maishiy hayot, turmush tarzidagi sabr-toqat;
- ▨ Boshqalar urf-odatlariga toqat;
- ▩ Boshqa din va maslaklarga toqat;
- Mafkuraviy har xillikka toqat;
- ▧ Estetika va didga oid har xillikka toqat;
- Musiqa va san'atning turli xillariga moyillikka oid sabr-toqat;

Bu yerdagi xulosalar sintetik xususiyatlarga ega bo‘lib respondentlarga berilgan savollar mantiqiy umumlashtirilgan. Masalan, “Mafkuraviy

har xillikka toqat” deb nomlangan umumlashma – xulosa anketada joylashtirilgan, “Buyuk davlatlar shovinizmiga munosabatingiz qanday?” yoki “Ba’zi davlatlarning boshqa xalqlarga o’tkazayotgan siyosiy tazyiqiga qanday qaraysiz?”, “Evrosentrizm yoki Osiyosentrizm oqimlariga munosabatingiz?”, shuningdek, “Xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali doimiy olib borilayotgan siyosiy eshittirishlar, teleko’rsatuvlarga munosabatingiz” singari savollar umumlashtirilgan.



■ Maishiy hayot, turmush tarzidagi sabr-toqat;

Boshqalar urf-odatlariga toqat;

Boshqa din va maslaklarga toqat;

■ Mafkuraviy har hillikka toqat;

■ Estetika va didga oid har xillikka toqat;

■ Musiqa va san’atning turli xillariga moyillikka oid sabr-toqat;

O‘zbek tolerantligining ikkinchi muhim rivojlanish istiqboli ilm-fan, ma’rifat sohasida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlarda tolerantlik o‘zgalarning ilmiy hamda ma’rifiy qarashlariga hurmat, har bir nazariy mushohadalar va fan yo‘nalishlariga e’tiborni ifodalaydi.

O‘zbek tolerantligining yana bir muhim yo‘nalishi bu ijtimoiy hamkorlik borasidagi, katta muammolarni birgalikda hal etishda, guruhviy regional hamda xalqaro miqyoslardagi umuminsoniy gumanistik masalalarni birgalikda, o‘zaro murosaviy asoslarda hal etishdagi ishtirokida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu borada o‘zbek xalqining azaliy odatlaridan bo‘lgan hashar, yoki hududiy hamda xalqaro ko‘makka muhtoj bo‘lgan Orol dengizi

muammosini hal etish, SPID yoki boshqa xavfli kasalliklarni bartaraf etish harakatlari yo'lida birlashish misollarini keltirish mumkin, chunki o'zbek xalqi azaldan o'z tevaragidagi xalqlar taqdiriga befarq qaragan emas. Og'ir kunlarda yordam qo'lini beminnat cho'zib sidqidildan ko'mak bergan, dardiga sherik, qayg'udosh bo'lgan.

Tolerantlik milliy xushyorlikni, har qanday ichki va tashqi xurujlar, bo'hton va tuhmatlarga murosasiz bo'lishni ham talab etadi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqi tolerantligi fazilatining jamiyatda uchrab turadigan salbiy voqealarga munosabatida ham namoyon bo'lishi holatlari aniqlandi. Ijtimoiy jarayonlarda kuzatiluvchi salbiy hodisalarga nisbatan befarq qarash, loqayd munosabat tarzidagi tolerantlik quyidagi holatlarga nisbatan namoyon bo'layotganligi tashvishlanarli holdir.

1. Ota-ona, aka-uka, yaqin birodarlariga nisbatan mehr-oqibatsizlik holatlariga toqat: 20-35 yoshdagilarda – 75 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 25 foiz.

2. Aroqxo'rlikka e'tiborsizlik, passiv qarash: 20-35 yoshdagilarda – 66 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 44 foiz.

3. Giyoxvandlikka beparvolik: 20-35 yoshdagilarda – 68 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 32 foiz.

4. Estetik jihatdan past saviyali madaniyat mahsulotlariga loqayd munosabat: 20-35 yoshdagilarda – 61 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 39 foiz.

5. Ahloqiy tubanlashuv holatlariga loqaydlik: 20-35 yoshdagilarda – 68 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 32 foiz.

6. Deviant holatlar, jinoiy xatti-harakatlarga panja ortidan qarash: 20-35 yoshdagilarda – 72 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 28 foiz.

7. Diniy aqidaparastlar faoliyatiga beparvolik: 20-35 yoshdagilarda – 67 foiz, 36-50 yoshdagilarda – 33 foiz.

Oxirgi yillarda jahon jamoatchiligi xalqlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hamdo'stlik munosabatlarining zaiflashayotganligi ko'p mamlakatlarda inson qadr-qimmatining tushib borayotganligidan, har birlari bu masalaga o'z manfaatlari yo'lida yondashayotganlarining oqibatidan deb bilmoqdalar. Jahon xalqlari bir-birlari bilan oddiy muloqotda ham bo'la olmay qolganligi, bir-birlari haqida to'liq va haqqoniy ma'lumot olmayotganligi bunga sabab bo'lmoqda edi. Xalqlar o'rtasida kim qanday hayot kechirayotganligi haqida radio, televideniya, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali siyosatchilar bir-birlarining yuzlariga qora chaplab, ma'lumotlarni qalbaki tarzda bayon etib keldilar. Turistik sayohatga borgan kishilarning ko'z oldida chet el

hayoti o'zgacha namoyon bo'lsa, axborot vositalarining ma'lumotlaridagi hayot boshqacha aks etadi. Shuning uchun ham demokratiya, oshkoralik, inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo'lgan davlatlar boshqa davlatlar bilan "hamdo'stlik" va "ishonch" asosida yashashning eng muhim jihati sifatida mana shu munosabatlarning so'zsiz amal qilishi va kafolatlangan qonunchilik poydorligini talab qilmoqdalar.

Shunday ekan, endilikda davlatlarda qanday siyosiy tuzum hukm surishi va qay shakllarda boshqarilishidan qat'iy nazar barcha xalqlar, birinchi navbatda, bir-birlari bilan erkin muloqotlarga kirishish imkoniyatlariga ega bo'lishlari, tanish-bilish, qarindoshlarining kelib ketishi, oldi-berdi qilishlaridan zarur shart-sharoitlarda foydalanishlari kerak. Ayniqsa, xalqaro, iqtisodiy, madaniy hamkorlik munosabatlariga katta e'tibor berib og'ir kunlarda hamdard bo'lib, yonma-yon turib, turli musibatlarni bartaraf etish, yaxshi kunlarda esa bir-birlarining yurtlarida mehmon bo'lib teatr, kino, san'atning qiziq va orombaxsh namunalari bahramand bo'lib, mamlakatlararo gastrollarni va tomoshalarni uyushtirib, keng tarmoqli qo'shnichilikni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Butun jahon xalqlari o'zaro ishonchsizlikni bartaraf etish, xalqaro xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning o'zaro maqbul yo'lini topish uchun birgalikda kuch-g'ayrat sarflashi kerakligi bugungi kunda yaqqol ko'rinib turibdi.

Butun xavf-xatarni, ishonchsizlikni bartaraf etishda, hamkorlik va hamdo'stlikni ro'yobga chiqarish uchun quyidagi ishlarni davom ettirish kerak:

Birinchidan, bundan buyon ham qurolsizlanish, "yadrosiz va zo'rovonlarsiz dunyo sari" g'oyasini tinimsiz rivojlantirish, qurol-yarog'larni va qurolli kuchlarni mudofaa uchun yetarli darajadagina qoldirish; yadroviy do'q-po'pisani, qo'rqitish va dag'dag'ani tamomila yo'qotish; mamlakatlararo munosabatlarda ijtimoiy - siyosiy yo'lni tanlab olish erkinligiga, suverenitet va mustaqillikka jahondagi barcha mamlakatlar bilan hamkorlik va sheriklikni rivojlantirishga kafolat beradigan huquqiy negizni yaratish kerak. Negiz bo'lib esa, tolerantlik xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, har qanday mahalliy nizolarni tinch siyosiy yo'l bilan o'zaro manfaatlardan kelib chiqib hal qilish, hozirgi davrning eng yaxshi an'analaridan bo'lib qolishi kerak. Zero, yangi siyosiy tafakkurni ixtiloflar va tafovutlarning barcha sohalariga tadbiiq etish va ular bilan bog'liq ko'plab zaruriy chora-tadbirlar umuminsoniy qadriyatlarining asosidir.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va hamkorlikda rivojlanish qonunlarining ta'siri tobora yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Zero, haqiqatdan, tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, har tomonlama hamkorlik, o'zaro ishonch - nafaqat omon qolish, balki ko'pgina sotsial vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy, huquqiy, moddiy va ma'naviy boyliklari bo'lgan meroslarini asrash orqali ta'minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, firqalar, davlatlar va ular tartibotlarining o'ziga xos funksiyalari real muammolar bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy voqelik hodisalariga bugungi kun yondashuvlari, hayotga yangicha tamoyillar, me'yorlar doirasida ish tutishni taqazo etmoqda.

2. Xalq qadriyatlarini insoniyatning omon qolish va rivojlanishining asosiy shartlaridan ekanligi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Xalqaro vaziyatni sog'lomlashtirish yangi dunyo siyosatining asosi bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda sog'lom aqlga suyangan xalqlar yer yuzida tinchlikni saqlashga, insoniyat omon qolishini kafolatli ta'minlashga intilishlari kerak, agar shunday qilinmasa, hech qanday ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi ham ma'lum.

3. Dunyo xalqlari insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo'lgan shaxs liaq-huquqlarining hurmat qilinishini qabul qilmaganlaricha, ular oldida va butun hamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasini ham muvaffaqiyatli hal etish mumkin emas, demak, xalqaro xavfsizlikni ham mustahkam himoya qilishning imkoni bo'lmaydi. Shu bois ham, butun insoniyatga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishga qodir, tor ma'noda tushunilsa, alohida bir milliy qadriyatlarning boshqa xalqlar qadriyatlariga nisbatan o'z foydasiga tarozi pallasini bosib ketishi tufayli, xavfli og'ish sodir bo'lmaydigan uchun, ularni doimo esda tutish lozim. Bu borada Qur'oni Karimdagi quyidagi so'zlarni aslo unutmasligimiz kerak:

“Iymon keltirib, yaxshi amallar qilgan zotlar - biz hech bir jonni toqatidan tashqari narsaga taklif qilmaymiz - ular jannat egalari bo'lib unda abadiy qolajaklar”.⁴⁶

⁴⁶ Qur'oni Karimdan 7-sura – Araf surasi, 42-oyat. -T.: Чўлпон, 1992. – Б. 127.

X U L O S A

Tolerantlikning tarixiy ildizlari tadqiq etilganda jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarida mulkiy tengsizlik, kishini kishi tomonidan ekspluatsiya qilinishi, hududiy va etnik ziddiyatlar tolerantlikka bo'lgan umuminsoniy ehtiyojlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Insoniyat tarixining turli davrlarida yashagan mutafakkirlar tolerantlik bilan bog'liq ma'naviyat ijtimoiy voqelikning amal qilishi va kishilik jamiyatining barqaror xayotiyligini ta'minlashning eng insonparvar omili ekanligini asoslab berdilar.

Shubhasiz, tolerantlik umumiy ong yoki ma'naviy-axloqiy oliyanoblikning ajoyib zaminida kamol topadigan insoniyatning mangu mukammal holati bo'lishi mumkin emas. Biz jami individlar (yakka shaxslar) yig'indisi yoki jilla qursa ularning aksariyat qismi mushtarak manfaatlar sari intilishda kim o'zarga bahs boylashidan, beqiyos bag'rikenglikni namoyon qilib, umumiy manfaatlar va hamjihatlik yo'lida jon fido qilishga shayligimizdan iborat bu xildagi ijtimoiy holatni bilmaymiz.

O'z-o'zini aldashing navbatdagi qurboniga aylanmaslik va biron chora ko'rishning iloji qolmaydigan mushkul ahvolga tushib qolmaslik uchun ayrim oddiy haqiqatlarni o'zlashtirib olish kerak, xolos.

Birinchi haqiqat shundan iboratki, zamonaviy jahon vijosatini bizga hech kim tayyorlab bermaydi. Ilgarigidek, bo'lingan dunyodagi mamlakatlarning davlat manfaatlari o'zaro bog'liq holda harakatlanadi, ya'ni biriga qo'shilsa, ikkinchisidan ketib turadi.

Ikkinchi haqiqat xom xayollarning puchga chiqishi oqibatida yuzaga keladiki, bunda go'yo jahon tarixiy jarayonida har yoqlama subyekt (ilohiy ong, noyob ijtimoiy sinf, oliy madaniyat) paydo bo'lib, u o'zining xususiy mohiyat-e'tibori bilan ijtimoiy taraqqiyotdagi barcha tub qarama-qarshiliklarni yo'qotish va "haqiqiy inson"ning "haqiqiy mohiyati"ga mutanosib mangu holatni qaror toptirish uchun yaratilgandir.

Uchinchi haqiqat esa, energetika va xom ashyo resurslari bobidagi tanglik vaziyatida kuch yakkahokimligining o'rnatilishi, zamonaviy dunyo miqyosida "quyi" madaniyat resurslarining "oliy" madaniyatlar tomonidan o'zlashtirib yuborilishi evaziga, "oliy" madaniyatlarning saqlanib qolish siyosati uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishdek tarixiy dalilni anglab yetishdan iborat.

Shu ma'noda tolerantlik muammosining yangi qirralari namoyon bo'ladi. Tolerantlik barcha xalqlarning yashash uchun kurashish huquqining tasdiqlanishi bilan obyektiv ravishda bog'liqdir.

Jahon hamjamiyati kuch yakkahokimligini zaiflashtirish yo'llarini topa olgan taqdirdagina, o'zining asliy ma'nosidagi tolerantlikni saqlanib qolishi mumkin bo'ladi. XXI srda tolerantlikning haqiqiy poydevori sifatidagi yangi barqaror muvozanatga ehtiyoj tug'ildi. Ana shunday yangi muvozanat sharoitidagina ham alohida shaxs, ham xalq erkin ma'naviy shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy hujjatlar:

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон. 1992. - 35 б.
- 1.2. Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси. - Париж. 1995 йил 16 ноябрь. - 10 б.

II. Rasmiy adabiyotlar:

- 2.1. Каримов И.А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар. - Т.: Ўзбекистон, 1992. - 31 б.
- 2.2. Каримов И.А. Ўзбекистон келажиги буюк давлат. - Т.: Ўзбекистон, 1993. - 62 б.
- 2.3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 364 б.
- 2.4. Каримов И.А. Биздан овоз ва обод Ватан қолсин. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 382 б.
- 2.5. Каримов И.А. Ҳалоллик ва фидойилик фаолиятимизнинг асосий мезони бўлсин. - Т.: Ўзбекистон, 1994. - 32 б.
- 2.6. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. - Т.: Ўзбекистон, 1994. - 160 б.
- 2.7. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. - Т.: Ўзбекистон, 1995. - 278 б.
- 2.8. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 326 б.
- 2.9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т.: Ўзбекистон, 1999. - 48 б.

III. Kitoblar:

- 3.1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Танланган асарлар. - Халқ мероси, 1993. - 222 б.
- 3.2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.
- 3.3. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. - Т.: Халқ мероси, 1992. - 149 б.
- 3.4. Алавиа Музаияна. Аҳл бўлинг. - Т.: Ўзбекистон, 1985. - 29 б.
- 3.5. Арутюнов С. Место национальных традиций развития современных этнических общностей. - Т.: Фан, 1989. - 249 с.
- 3.6. Абборов М. Янгича фикрлаш ва миллий урф-одатлар. - Т.: Билим жамияти, 1990. - 21 б.
- 3.7. Абдуллаев М. О национальной специфике эстетической культуры // Общественной науки в Узбекистане, - 1991. - №12.
- 3.8. Бекмуродов М. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. - Т.: Фан, 1999. - 243 б.
- 3.9. Баратов Н., Аликулов Ҳ. Ўрта Осиё мутафаккирлари ахлоқ ҳақида. - Т.: Фан, 1992. - 91 б.
- 3.10. Бикрицкий В. Кишилар Ўртасида маънавий - ахлоқий муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 1975. - 38 б.
- 3.11. Бозоров О., Худойкулов А. Ахлоқий қадриятлар ва ислом. - Самарқанд.: Зарафшон, 1992. - 28 б.
- 3.12. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети хусусиятлари. // Ижтимоий фикр журнали, 1998. №1. - 49-51 б.
- 3.13. Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. 1-2-жилд. Т.: Фан, 1957. - 537 б.; 1965. - 486 б.
- 3.14. Бершадский В. Меҳр-шафқат ва саховатпешалик тўғрисида. // Ижтимоий фикр. - 1998. №2. - 117-119 б.
- 3.15. Жабборов И. Ўзбек халқи этнологияси. - Т.: Ўқитувчи, 1994. - 312 б.
- 3.16. Жўраҳон Авлиёхон. Миллий ахлоқ эскирмайди. // Ҳаёт ва иқтисод. - 1992. №7. Б. 38-39.

- 3.17. Жўраев Н. Тарих фалсафаси. - Т.: Маънавият, 1999. - 189 б.
- 3.18. Жўраев Н. «Мустақил Ўзбекистон Республикасининг миллий-ахлоқий тамойиллари». «Миллатлараро ҳамжиҳатлик – барқарорлик омили». Тўплам. - Т.: Ўзбекистон Республикаси Байналмилал маданият маркази, 1999. - Б.10-13.
- 3.19. Жўраев Н. «Маънавий покляниш ва миллий Қадриятларнинг тикляниши». «Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари». ЎзФА Тарих институти. - Т.: Шарқ, 2000. - Б.111-136.
- 3.20. Икром Д. Бизга шарқона демократия керак. // Мулоқот. - 1992. N5-6. - Б.19-24.
- 3.21. Каримов Б. Оқилна қадрият мўлжаллари. - Т.: Ўқитувчи, 1994. - 132 б.
- 3.22. Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. - Т.: Фан, 1993. - 138 б.
- 3.23. Маманазаров Н. Миллий Ўзликни англашнинг этник жиҳатлари. // Ижтимоий фикр. - 1998. N2. - Б.7-9.
- 3.24. Пўлатов Х. Ўзбек мафқураси. // Мулоқот. - 1991. №6-7. - Б.3-7.
- 3.25. Ролд Дж. Теория справедливости. /Пер. с англ. - Новосибирск.: Новосибирск. ун-та., 1995. - 536 с.
- 3.26. Ртвеладзе Э. Кушонлар мослашувчанлиги. // Ижтимоий фикр. - 1998. - N1. - Б.22-23.
- 3.27. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 414 б.
- 3.28. Назаров Х. Ҳозирги замон ва умуминсоний Қадриятлар. - Т.: Маънавият, 1993. - 23 б.
- 3.29. Назаров ?. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: Маънавият, 1998. - 121 б.
- 3.30. Умарова Н. Ўзбек миллатининг руҳиятидаги жамоачилик анъаналари. // Ижтимоий фикр. - 1998. - N2. - Б. 38-39.
- 3.31. Файзуллаев А. Инсон, сиёсат, бошқарув. - Т.: Ўзбекистон, 1995. - 205 б.
- 3.32. Федерико Майор. Келажак хотираси. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 172 б.
- 3.33. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. /Пер. с англ. Э.Телятниковой, Т.Панфиловой. - Мн.: ООО «Попурри», 1999. - 624 с.
- 3.34. Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиётда миллатлараро алоқа маданияти. - Т.: Маънавият, 1998. - 32 б.
- 3.35. Ўзбекистон миллий истиқлол мафқураси. Т.: Ўқитувчи, 1993. - 30 б.
- 3.36. Хўжамуродов И. Ислом. Миллийлик. Қадрият: (Ислом ва Ўзбек халқи миллий ўзлигини англашнинг шаклланиши) - Т.: Фан, 1993. - 151 б.
- 3.37. Худойберганов. Анъаналар Ҳаёт сабоғи. - Самарқанд, 1992. - 32 б.
- 3.38. Хошимов Ш. Қадрият нима дегани? /Қадрият сўзининг маъноси, унинг тарихи, аҳамияти ҳақида/. // Гулистон. - 1995. N1. - Б.4-5.
- 3.39. Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. - М.: Росс.Акад.Наук., 1998. - 250 с.
- 3.40. Чўлиев П., Зоҳидий А. Миллий маънавиятимиздаги ҳуқуқий, ахлоқий қадриятлар. // Халқ сўзи. - 1996. - 16 август.
- 3.41. Эшонкулов. Н. Миллий муносабатлар: Ҳамкорлик ва ўзаро таъсир. // Мулоқот. - 1991. N11. - Б. 46-49.
- 3.42. Эрназаров Р. Миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси. - Т.: ТДПИ, 1992.
- 3.43. Ҳамраев Л. Абодий қадриятлар. // Инсон ва сиёсат. - 1991. N1. - Б. 32-33.
- 3.44. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 262 б.
- 3.45. Курбанов С., Солиев Т. Янгича тафаккур ва ҳозирги дунё. - Т.: Ўзбекистон, 1991. - 160 б.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
Tolerantlikning nazariy asoslari	6
O'zbek tolerantligining shakllanish tarixi	19
O'zbek tolerantligining ijtimoiy-siyosiy mohiyati	41
O'zbek tolerantligining istiqlol davrida namoyon bo'lish	52
Istiqllari	52
Xulosa	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	60

E'ZOZA KARIMOVA

O'ZBEK TOLERANTLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'quv qo'llanma

Nashr uchun mas'ul:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi direktori
Qurbonmurod Jumayev

Muharrir:

Raximjon Otayev

Musavvir va texnik muharrir:

Nodir Ortiqov

Dilobar Xurramova

Terishga berildi 04.07.2006 y. Bosishga ruxsat
etildi 20.07.2006 y. Qog'oz formati 60x84 $\frac{1}{16}$.
Ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 4.0 bosma
toboq. Nuxsasi 500.
Buyurtma № 28

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot
jamg'armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,
J-Neru ko'chasi, 1-uy.

«AVTO-NASHR» sho'ba korxonasi
bosmaxonasida chop qilindi.
700005, Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.